

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
TUPROQSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

**Mavzu: “Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Xristofor Kolumbning
sayohatlari va uning geografik ahamiyati”**

5140600 – Geografiya ta'lim yo'nalishi

Bitiruvchisi:

Karimova Sitora

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Mirzoyeva I

Himoyaga tavsiya etildi: _____ “ ” may 2018 yil

(imzo)

Buxoro – 2018

MUNDARIJA

Kirish.....3

I –BOB. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRI VA UNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

1.1. Buyuk geografik kashfiyotlar davridacha G’arbiy Yevropadagi ahvol va uning geografik jihatlari.....5

1.2. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografiya fanining rivojlanishi.....10

1.3. Buyuk geografik kashfiyotlarning o’rganilish tarixi.....20

II-BOB. KRISTOFOR KOLUMB SAYOHATLARI VA UNING GEOGRAFIK AHAMIYATI

2.1 Xristofor Kolumbning hayoti va faoliyati.....28

2.2. Xristofor Kolumb va uning Osiyo sharqiy qirg’oqlariga yetkazuvchi yo’llar bo’yicha loyihalar mazmun-mohiyati.....37

2.3. Xristofor Kolumb sayohatlarining geografik jihatlari.....43

Xulosa va takliflar.....52

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Geografik kashfiyotlar tarixida katta iz qoldirgan shaxs. Mashhur sayyohlar orasida hayotining turli qirralarini yorituvchi asarlar soni bo'yicha ham Xristofor Kolumbga teng keladigani kam topiladi. Xristofor Kolumb Amerikani kashf etgan sayyoh sifatida baribir tan olinsa-da, Shimoliy Amerikaga birinchi bo'lib borgan Yevropalik hisoblanmaydi. Ammo faqat Xristofor Kolumbning sayyohatigina jahon tarixida olamshumul burilish yasaganini ta'kidlash joiz.

Mavzuning dolzarbligi sifatida Xristofor Kolumb yashagan davr tarixi, hayoti va faoliyati, Xristofor Kolumb sayohatlarining geografik jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Mamlakatimiz, ta'bir joiz bo'lsa, bugun ulkan qurilish maydoniga aylangan. Biror bir sohani ajratib ko'rsatishga odam qiynaladi. Qaysi sohaga qaramang, jadal sur'atlar bilan ish borayotganini ko'rasiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etdi. Murojaatnomada ta'lim tizimidagi innovatsiya va kreativ yondashuvlar asosida Muhammad Xorazmiy va Mirzo Ulug'bek nomlari bilan ataladigan, aniq fanlar chuqur o'qitiladigan maxsus maktablar tashkil etilganligini qayd etdi. Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasida ham ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilinganligini aytib o'tdilar.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimi takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi. Ko'p yillik tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasiga saylov o'tkazilib, o'zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste'dodli olimlar akademik degan yuksak sharafga sazovor bo'ldilar. Endi barchamiz Fanlar akademiyasidan yangi ilmiy ishlanmalar, istiqbolli

tadqiqotlar yaratish bo'yicha amaliy natijalar kutib qolamiz. Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart ekanligini qayd etib o'tdilar.

Yuqoridagi murojaatnomadan kelib chiqib, ta'limning barcha tizimlarida geografiya fanini o'qitishdagi kamchiliklarni ham bartaraf etishda ushbu Murojaatnomadagi tegishli ma'lumotlar asos bo'ladi.

Men bitiruv malakaviy ishda dastlab Xristofor Kolumbgacha G'arbiy Yevropa olimlari tomonidan geografik bilimlarning rivojlantirilishini ham yoritdim.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsad va vazifalari. Mazkur ishning asosiy maqsadi Buyuk geografik kashfiyotlar davrida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va ularning geografik xususiyatlari, Xristofor Kolumb sayohatlarining geografik jihatlarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilardan iborat.

- Birinchi bobda buyuk sayyohatchi Xristofor Kolumbgacha bo'lgan davrda G'arbiy Yevropadagi ahvol, Buyuk geografik kashfiyotlar davrining o'ziga xos geografik xususiyatlarini tavsiflash.
- Ikkinchi bobda buyuk sayyoh Xristofor Kolumbning hayoti va ijodi, Xristofor Kolumb sayyohatlari va uning geografik ahamiyatini bayon ettirish.

I –BOB. BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

1.1. Buyuk geografik kashfiyotlar davridacha G'arbiy Yevropadagi ahvol va uning geografik jihatlari

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb - XV asrning o'rtasi yoki oxiridan XVII - asr o'rtalarigacha bo'lgan davrlar aytiladi. Buyuk deb atalishga loyiq geografik kashfiyotlar har doim ham bo'lgan, lekin hech qaysi davr Buyuk geografik kashfiyotlar davridagidek dunyo taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan kashfiyotlarga boy bo'lmagan.

XIX asr tarixchilari o'rta asrlar tarixining xronologik chegaralari 476 yildan- G'arbiy Rim imperiyasi qulagan vaqtdan boshlanib, 1492 yilda Amerikani kashf qilinishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, deb hisoblaganlar. Yevropa va Osiyodagi barcha xalqlar, shuningdek Afrika va Lotin Amerikasini ko'plab xalqlari o'z rivojlanishida feodal tuzum davrini bosib o'tgan, demak o'z o'rta asrini boshdan o'tkazishgan.

Turli xalqlarda feodalizmga o'tish bir vaqtni o'zida bo'lmagan. Shuning uchun, o'rta bir vaqtni o'zida bo'lmagan. Shuning uchun, o'rta asr davrini xronologik chegarasi turli kontinentlarda va hatto ayrim mamlakatlarda bir xil emas. O'rta asrlar tarixi kursining asosiy vazifasi-feodalizmning paydo bo'lishidan to uning yemirilishigacha bo'lgan taraqqiyot jarayonini ko'rsatishdan iboratdir. G'arbiy Yevropada o'rta asrlar davri V asrdan to XVIII asrgacha, ya'ni varvarlarning Rim imperiyasining bosib olishi (V-asrning ikkinchi yarmi) dan to burjua revolyutsiyasiga qadar (XVII asrning 40-yillari) bo'lgan davri o'z ichiga oladi:

1. Ilk o'rta asrlar (V-XI asrlar). Bu davrda feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tashkil topdi. (Feodal jamiyatning genezisi(shakllanishi) davri)
2. Feodal munosabatlarning rivojlangan (XI-XV) davri. Bu davrda feodal ishlab chiqarish, madaniyat, san'at sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

3. Feodalizmning so'nggi davri (XVI asr-XVII asrning birinchi yarmi). Bu davr feodal munosabatlarning yemirilishini va feodalizm zaminida kapitalizm elementlarning paydo bo'la boshlashi bilan xarakterlanadi.

O'rta asrlar tarixining xronologik chegarasi keng va murakkabdir.

Sharq mamlakatlari (Osiyo, Shimoli-Sharqiy Afrika) da ishlab chiqarish munosabatlari asosiy xillarining almashinishi Yevropadaga qaraganda birmuncha boshqacharoq tarixiy muddatlarda amalga oshdi. Biroq tarixini yaxlit bayon etishni buzmaslik maqsadida biz Yevropa tarixining xronologik doirasini asos qilib olamiz va xuddi shu davrdagi Sharq mamlakatlari tarixini O'rta asrlar tarixiga kiritamiz. Materialni bunday bo'lish O'rta asrlar tarixini mazmunini bir butunligiga xilof bo'lmaydi, chunki bu davrda feodal krepostniklik munosabatlari Sharqda ham ustunlik qilar edi. Tarixshunoslikda V-XIII asrni boshlaridan buyon «feodalizm» termini qo'llanib keladi. Feod-(lotincha) o'rta asr G'arbiy Yevropasi manbaalarini yer, mansab va daromadlarni belgilashda qo'llanib kelingan. Lotincha termin g'arbiy Yevropada feodalizm davrida inson tomonidan harbiy xizmatni o'tash va boshqa bir qator majburiyatlarni bajarish sharti bilan foydalanish uchun meros bo'lib o'tadigan qilib in'om qilingan yer-mulk. O'rta asrlarda Fransiyada feod «fe'r», Angliyada «fi», Germaniyada esa «men» deb atalgan. Feodalizm davrida dehqonlar mehnatidan feodal votchina doirasida foydalanilgan, bunda feodal egaligini iqtisodiy va ijtimoiy o'rni to'la amalga oshirilgan. Votchina feodal rentani (obrok, barina, pul obrogi) undirish tashkiloti hisoblangan. Biroq so'nggi feodalizm davrida dehqonlarni ekspuluatatsiya qilish feodal davlat tomonidan davlat soliqlari sistemasi orqali ham amalga oshirilgan. Feodal yer rentasi- bu yer egasi tomonidan o'zlashtiriladigan, qaram dehqonlarni mehnati yoki mahsulotini bir qismi hisoblanadi. Demak, feodal renta feodalni yerga egaligini amalga oshirilishini iqtisodiy shakli bo'lib ishtirok etadi. Feodal renta uch shaklda bo'ladi: ishlab berish rentasi (barina), oziq-ovqat (natural obrok) pul (pul obrok). Ba'zi xalqlar feodalizmga quldorlik tuzumi orqali, boshqa ba'zi xalqlar esa ibtidoiy jamoa tuzumidan o'tgan. Biroq har ikki holatda ham yangi tuzumga o'tish zarur progressiv ahamiyatga ega bo'lgan.

Barcha xalqlar bosib o'tgan ko'p asrlik ushbu davrni tarixini o'rganmasdan turib, kishilik jamiyati tuzumlarini vujudga kelishiga rivojlanish va tanazzulga yuz tutishini umumiy qonunlarini tushunib bo'lmadi. Hozirgi zamondagi ko'plab munosabatlarni tomiri (negizi) uzoq o'rta asr jamiyatiga borib taqaladi. Ushbu davrda hozirgi Yevropaning ko'plab xalqlari va davlatlarini tashkil qilgan milliy madaniyat tashkil topgan. Bu xalqlarning milliy tili va xarakteri tashkil topishini boshlagan. Millatlar vujudga kela boshladi. Hozirgi Yevropadagi milliy etnik diniy ziddiyatlarning negizi ham O'rta asr davriga borib taqaladi. O'rta asrlarda Yevropada dastlabki universitetlar paydo bo'ldi, ularning ko'plari hozirda ham faoliyat ko'rsatmoqda. O'rta asrlardan meros bo'lib qolgan ancha e'tiborli tashkilotlardan biri cherkov, ya'ni Rim katolik, pravoslav, protestantlikni turli yo'nalishlari mavjud bo'lib, bu cherkov tashkilotlari Yevropa xalq ommasini ongiga ancha darajada ta'sirga ega. O'rta asrlar tarixini o'rganuvchi tarixchi mutaxassislar tomonidan ushbu davr tarixi muammolarini doirasida va hozirga qadar qizg'in tortishuvlar mavjud. G'arbiy Yevropaning turli mamlakatlarida feodalizmni negizi, genezisi va rivojlanishini tipologiyasi, quldorlikni o'rta asrlardagi o'rni, o'rta asrlar shaharlarining vujudga kelish yo'llari va bu ko'p asrlik davrni turli paytlardagi, ularni xarakterdagi farqlar, ularni feodal jamiyatdagi o'rni masalalari yuzasidan kuchli tortishuvlar mavjud. O'rta asr jamoasini xarakteri haqida, feodalizmda votchinani roli, davlat va uning siyosatini bu davrdagi ahamiyati, iqtisodiy va noiqtisodiy faktlarni o'zaro munosabati, shuningdek ijtimoiy psixologiya va ideologik tuzilmalarni ya'ni cherkov va dini o'rni masalalarida tortishuvlar mavjud.

Ushbu davrga qadar Yevropaliklarga Yevropa, Osiyo va Afrikaning bir qismigina ma'lum edi. Sharqdan kelayotgan turli savdogarlarning ma'lumotlariga suyanib Xitoy, Hindiston va Yaponiya haqida dunyodagi eng boy hududlar sifatida tasavvur hosil bo'lgan edi. Bu mamlakatlardan olib kelinayotgan mollar, ayniqsa ziravorlar Yevropada juda qimmat turar, Yevropaliklarning oltin va kumushlari kamlik qilib qolgan edi. Shuning uchun ham o'rta asrlarda har qanday metallni oltinga aylantirishni va'da qiluvchi alximiya fani rivojlanib ketdi. Yevropaliklar

Sharqning boy o'lkalariga yetib borishga urinardi, ammo XV- asrda Usmoniylar imperiyasi quruqlik yo'lini to'sib qo'ygan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar jahon taraqqiyotiga benihoya katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Kashfiyotlar jahon savdo yo'llarini butunlay o'zgartirib yubordi. Endi savdo yo'llari O'rta Yer dengizi bo'ylab emas, balki okeanlar orqali o'tadigan bo'ldi. Yangi ochilgan yerlar bilan savdo aloqalari – jahon savdosini vujudga keltirdi. Geografik sayohatlar kashf etilgan “Yangi dunyo” bilan “Eski dunyo” madaniy o'choqlari orasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatilishiga imkoniyat yaratildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaliklarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, bilimlarini oshirdi. O'zga qit'alar va xalqlar to'g'risidagi ko'plab afsonalar, noo'rin fikrlar chilparchin bo'ldi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoning yuksalishiga, moliya sohasida bank va kredit ishlarida yangicha uslublar yaratilishiga imkon berdi.

Geografik kashfiyotlar va mustamlaka yerlarni bosib olish Yevropa mamlakatlarida tovar ishlab chiqarishning o'sishiga yordam berdi. Lekin, bu ishlar Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomidagi qulligi, tahqirlanishi, og'ir mehnatlari evaziga bo'ldi. Ular Yevropada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaratilishiga xizmat qildilar.

Ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotlarning yo'l boshchilari bo'ldilar. Masalan, Portugaliya XIII-XV-asrlar davomida Shimoliy Afrikada arablar bilan urushlarni davom ettirib yaxshigina dengiz flotini tuzishga erishdi, O'rta Yer dengizidan Shimoliy va Boltiq dengizlariga boradigan muhim savdo yo'li Portugaliya qirg'oqlari yaqinidan o'tganligi sababli Portugaliya portlariga turli mamlakatlardan kemalar kelib turardi. Dengiz kemalarida xizmat qilish va baliq ovlash sohil bo'yida yashovchi ko'pchilik aholining asosiy mashg'uloti edi. Keyinchalik ulardan dovyurak va tajribali dengizchilar ham yetishib chiqdi.

Yevropada ikki madaniyat-biri Vizantiyada va ikkinchisi Rim imperiyasining g'arbiy qismida tashkil topgan. Missionerlar Xitoy, Hindiston, Sharqiy Afrikaga sayohatlar qilishdi; nazariy tasavvurlar qadimgi grek (yunon) fani yutuqlariga

asoslandi. Vizantiya madaniyati g'arb madaniyatidan yuqori edi.

Rim imperiyasining g'arbiy qismi o'rnida bir qancha mayda davlatlar vujudga keldi. Feodal tarqoqlik va tashqi aloqalarning kamligi madaniy rivojlanishga to'sqinlik qilib qoldi.

Vizantiyada ham, g'arbda ham dunyoqarash cherkov tazyiqida bo'lgan, lekin jamiyatning iqtisodiy hayoti to'xtovsiz rivojlanib borganligi sababli inson atrofini o'rab olgan borliq haqidagi bilimlarning to'plana borishi hech qachon to'xtab qolgani yo'q.

Yer yuzasini o'rganishda normanlar, arablar va Sharqiy Yevropada yangi bo'lgan madaniyat markazi - Rossiya alohida rol o'ynagan.

VIII-X asrlarda dengiz orqali qilingan geografik kashfiyotlarda normanlar, ya'ni skandinaviyaliklar juda katta rol o'ynaydi. Kiyev Rusida skandinaviyaliklar varyaglar deb atalgan.

Skandinaviya bilan Yutlandiyaning qishloq xo'jaligi uchun noqulay tabiati bu yerdagi erkaklarni o'z vatanini tashlab ketib, dengiz hayvonlarini ovlash, qaroqchilik, dengizda yuk tashish bilan shug'ullanishga va hatto doimiy yashab qolish uchun yangi yerlar qidirib ketishga majbur etgan. Dengiz sayohatlari kemalarning takomillashuviga yordam berdi.

Geografik bilimining kengligi diqqatga sazovordir. Bunga ruslarning G'arbiy Yevropa va Osiyo bilan ham, varyaglar va greklar bilan ham aloqa qilib turganligi, shuningdek, yunon fani bilan ham tanishligi sababdir. Ular shimolda Nevo ko'lini (ya'ni Ladogani) va sharqda 60° shim. kenglik bo'ylab Uralgacha bo'lgan yerlarni bilganlar. Ularga Volga, Kaspiy dengizi, O'rta Osiyo, janubda esa — Hindiston, Arabiston, Afrikaning O'rta dengiz sohillari, g'arbda—Atlantika okeani sohillari, Buyuk Britaniya janubi, Baltika dengizi ma'lum edi.

Chexiya o'rmoni, Karpat tog'lari, Kavkaz tog'lari, Qora va Kaspiy dengizlaridan Baltika dengizigacha cho'zilgan Sharqiy Yevropa tekisligining yer yuzasi hamda daryolari batafsil tasvirlangan (bu -yerda hozirgi vaqtdagi nomlari aytiladi).

Yevropaliklar Xitoy va Hindiston bilan Old Osiyo, O'rta Osiyo va Markaziy Osiyodan o'tadigan «shoyi (ipak) yo'li» orqali (arablar savdo yo'lini chetda

qoldirib) savdo olib borar edilar. Bu yo'lni savdogarlar tog'-toshloq cho'llarning og'ir sharoitida bir tomonga uch-to'rt yilda bosib o'tar edilar, lekin Xitoy buyumlarining qimmat baho ekanligi bu qiyinchiliklarni oqlar edi. Xitoyga borgan eng mashhur sayyoh venetsiyalik savdogar Marko Polo bo'lgan. Marko Polo 1271 yil yosh yigitlik davrida sayohatga chiqib, Xitoyda 17 yil yashadi va Yevropaga Janubiy Osiyo orqali 1295 yilda qaytib keldi, shunday qilib, u 24 yil sayohatda bo'ldi.

Marko Polo o'z kitobida o'sha vaqtda ko'p jihatdan noma'lum bo'lgan juda ko'p joylar haqida yozdi. Uning bu kitobi Sharq bilan bo'lgan savdoga qiziqishning kuchayishiga yordam berdi. Uning kitobi geografik kashfiyotlar davrida eng ommaviy kitob edi, chunki unda Dunyoning Ptolemey kartasida ko'rsatilmagan joylari yoritib berilgan. Shunday qilib, XII—XIV asrlarda yer yuzasi bilan tanishishda ancha katta qadam tashlandi. Lekin tabiiy hodisalar sababini tushuntirishda diniy qarashlar hali ham hukmronlik qilib kelar edi, shunga qaramay, sayohatlar diniy qarashlarga ancha putur etqazgan edi. «Geografiya» so'zi ishlatilmas edi.

1.2. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida geografiya fanining rivojlanishi

XV asrda kapitalistik xo'jalik va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari tug'ilishi bilan bozorlarga bo'lgan ehtiyoji oshdi. Pullik ayirboshning kuchayishi oltinga bo'lgan talabni oshirdi. Hunarmandchilikning rivojlanishi munosabati bilan xomashyoga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Hukmdor sinflar zeb-ziynat buyumlarini va ziravorlarni juda qimmatga olar edilar. Tabiati kambag'al Yevropa bunday ehtiyojlarni qondira olmas edi. Xitoy va Hindiston bilan bo'lgan eski aloqalar turklarning 1453 yilda Sharqqa boradigan dengiz hamda quruqlik yo'llarining chorrahasi bo'lgan Istanbulni bosib olishi bilan uzilib qoldi. XV asrning ikkinchi yarmida boy Hindistonga (o'sha vaqtda sharqdagi mamlakatlar shunday deb yuritilar edi) boradigan yangi yo'llarni qidirish boshlandi. 1492 yildan 1522 yilgacha, ya'ni Kolumbning birinchi ekspeditsiyasidan Magellanning dunyo aylana sayohati tugaguncha o'tgan 30 yillik davrda geografik kashfiyotlar eng yuksak darajaga yetdi. Bu davrda insoniyat o'zi yashayotgan sayyorasi sirtini, umumiy tarzda bo'lsa ham,

nihoyat bilib oldi.

Geografik kashfiyotlarni iqtisodiy sabablardan tashqari yana yangi, teologik dunyoqarashdan farq qiluvchi dunyoqarash ham taqozo etgan edi. Bu vaqtdagi falsafa burjuaziyaning feodalizm va katolik cherkovga qarshi kurashiga qaratilgan edi. (D. Bruno) Hunarmandchilik o'sdi, manafaktura paydo bo'ldi, texnika rivojlandi. Yunonlarning genial bashoratlariga va arablarning o'zaro bog'lanmagan, sporadik tadqiqotlariga qarama-qarshi o'laroq, fan deb atash mumkin bo'lgan birdan-bir fan - hozirgi zamon tabiatshunosligi shu davrda vujudga keldi.

Bu davrning eng buyuk ilmiy yutug'i Kopernikning geliostentrik sistemasi (1543 y.) bo'ldi. 1609 yilda G. Galiley kuzatish ishlarida teleskopdan foydalanib, bir qancha kashfiyotlar qildiki, ular yer bilan planetalarning o'xshashligini tasdiqladi, 1609-1619 yillarda esa I. Kepler planetalar harakati qonuniyatlarini tushuntirib berdi. Astronomiyaning yutuqlari geografik koordinatalarni aniqlash metodlarini ishlab chiqishga imkon tug'dirdi; fizika fani geografiyaga termometr, barometr va boshqa meteorologik priborlarni hadya qildi.

Geografiyada Ptolemeyning kitoblari va kartasi juda katta rol o'ynadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar uchta asosiy yo'nalishda bordi: 1) Afrikani aylanib o'tuvchi janubiy yo'nalish, 2) Atlantika okeani orqali o'tgan g'arbiy yo'nalish, 3) Yevrosiyaning qutbiy chekkalarini aylanib o'tuvchi shimoliy yo'nalish.

Buyuk geografik kashfiyotlarni Portugaliya boshlab berdi. Portugallarning Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab suzishi harakatlantiruvchi kuchi xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi bir necha bosqich bo'yicha bordi.

Birinchi bosqich (1415—1434) mavrlarga qarshi kurash bilan bog'langan. Bu vaqtda Madeyra oroli, Azor orollari topildi va Nun burnidan o'tildi.

Ikkinchi bosqichda (1434—1487) harakatlantiruvchi kuch qul savdosi va oltin undirish bo'ldi. Marks ta'biri bilan aytganda Afrika «qora tanlilar ov qilinadigan qo'riq maydonga» aylandi. Bu davrda Yashil burun (1445), Yashil burun orollari (1452), Gvineya qo'ltig'i (1462), Kongo daryosining quyur joyi (1482) va Yaxshi Umid burni (1487) topildi.

Uchinchi bosqichda (1487—1498) Yaxshi Umid burni kashf etilgandan keyin

portugaliyaliklar Hind okeani berk havzadir, degan tasavvurning noto'g'ri ekanligini tushunishdi.

Kashfiyotlarning birinchi davrida, shahzoda Genrix Dengizchining (1418-1460-yillar) iste'dodi, tashkilotchiligi tufayli nafaqat savdogarlar, balki dvoryanlar ham ishtirok etishdi. Natijada XV - asrning 20-30 - yillaridayoq portugaliyaliklar Madeyra, Kanar va Azor orollarini kashf qilishdi. Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab janubga siljib, portugal dengizchilari Boxador burnini chetlab o'tib, 1434 - yili Gvineya qirg'oqlariga, Yashil Burun orollariga va 1462 - yili Serra-Leonega yetib bordilar.

Portugallar o'zlari olib borishgan turli rangli matolar, shisha, marjonlar, kichkina oynachalar kabi mayda-chuyda buyumlarga mahalliy aholidan oltin aralashgan qum va fil suyaklarini almashtirib olardilar. Keyinchalik boshlangan qul savdosining markazi ham xuddi shu yerda bo'lgan. Kartalarda saqlanib qolgan Qullar qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Fil Suyagi qirg'og'i kabi rasmiy nomlar bejiz paydo bo'lmagan.

Portugallarning Bartalomeo Diash boshchiligidagi ekspeditsiyasi 1486-yili Afrikaning janubiy nuqtasini aylanib o'tib, Hind okeaniga chiqdi. Lekin uzoq davom etgan og'ir yo'l mashaqqatlaridan toliqqan dengizchilar safarni davom ettirishdan bosh tortdilar. Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasini, portugallar Hindistonga boradigan yo'lni yaqin orada ochilishini umid qilib Yaxshi Umid burni deb atadilar.

Amerika tub aholisi, hindularning ajdodlari qit'aga bundan 46-48 ming yil avval Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo'g'ozini orqali ko'chib o'tishgan. Faqat XIX asrdan boshlab Amerika xalqlari tarixini o'rganish ilmiy asosda yo'lga qo'yildi. Tadqiqotchilar hindularning ajoyib olami, qadimiy davlatlari va o'ziga xos madaniyati borasida yangi kashfiyotlar qildilar.

Ularda Hindistonga borish umidi paydo bo'ldi. 1497—1498 yillarda Vasko da Gama o'z ekspeditsiyasini Zanjibardan Hindistongacha boshlab borgan arab darg'asi (lostmani) Ibn-Majid yordamida Hindistonga borish umidini ro'yobga chiqardi. 1500 yilda Kabral qo'mondonligida Hindistonga yuborilgan ikkinchi portugal ekspeditsiyasi Braziliya qirg'oqlariga yetib bordi. Braziliya dastlab orol

deb hisoblanib, unga Vera Krust deb nom berilgan edi. Gama va Kabral ekspeditsiyalaridan keyin Janubiy Osiyo va Braziliyada Portugaliya ekspansiyasi boshlandi.

Yevropadan g'arbga tomon Atlantika okeani orqali Sharqiy Osiyoga borish yo'lidagi barcha geografik kashfiyotlar ichida eng buyuk kashfiyot—Kolumbning Amerikani kashf etishi bo'ldi¹.

Bu kashfiyot yuqorida ko'rganimizdak, normanlar kashfiyotidan keyingi ikinchi kashfiyot edi. Yangi yerlarni ochish g'oyasiga Pifagor va Aristotelning yerning sharsimonligi haqidagi ta'limotida, Ptolemeyning Yevrosiyo sharqqa uzoq cho'zilgan, degan fikrida va Beruniy asarlarida, shuningdek, Marko Poloning Xiggoy geografiyasi to'g'risidagi ta'limotida asos solingan. Xristofor Kolumb tarixiy qahramonlik qildi — materik kashf etdi. 1492 yil 3 avgustda uning 90 kishi va uchta kemadan iborat, flotiliyasi Ispaniyadan chiqib, o'sha yili oktyabrning 11 kunidan 12 kuniga o'tar kechasi Bagama orollaridan biri yaqiniga yetib keldi. So'ngra Kuba, Gaiti va boshqa orollar topildi. Bularni Osiyoning sharqidagi orollar deb o'ylashgan. Kolumb bundan keyingi hamma ekspeditsiyasida (hammasi bo'lib to'rtta ekspeditsiya bo'lgan) bu topilgan orollarni janub tomondan aylanib o'tib, haqiqiy boy Hindistonga chiqishga intilgan. U oxirgi ekspeditsiyasida (1502—1504) Amerika materigiga yetib keldi.

Kolumbning ketidan u kashf qilgan yerlarga ispan bosqinchilari— konkistadorlar tezlik bilan kela boshladilar. Ispanlarni Atlantika okeani orqali Amerikaga niqtagan sehrli so'z *oltin* edi; oq tanli odamning yangi topilgan qirg'oqqa qadam qo'yishi bilan qiladigan birinchi talabi oltin bo'lgan. Mustamlakachilar asteklar, mayya va yanqlarning yuqori madaniyatli davlatlarini yakson qildilar, indiestlarni (mahalliy aholini) deyarli butunlay qirib tashladilar. 1513 yilda Balboa Panama bo'ynini kesib o'tdi, 1519—1521 yillarda Kortes Meksikani bosib oldi. 1531—1534 yillarda esa Pizarro And tog'laridagi inklar davlatini bo'ysundirdi:

Amerikaning nomida tarixiy adolatsizliklardan biri namoyon bo'lgan. Dengizchi

Amerigo Vesputchi Janubiy Amerika qirg'oqlarining o'zi borib ko'rgan qismlarini tasvirlovchi bir necha maktubni nashr etgan. 1507 yilda Valdzemyullarning «Kosmografiyaga kirish» asarida Terra Amerika birinchi marta tilga olinadi, so'ngra mashhur kartograf Merkator kartalarida bu nom har ikkala materikka tatbiq etiladi.

Kolumbning Yangi dunyoni kashf qilgani bilan bir qatorda Magellanning 1519-1521 yillardagi dunyo aylana suzishi ham insoniyatning buyuk qahramonliklaridan biridir. Magellan ekspeditsiyasining bevosita vazifasi ancha kichik—Ziravorlar, ya'ni Mollukko orollarining geografik o'rnini aniqlash edi.

XV asrning eng kuchli dengizchi davlatlari bo'lgan Ispaniya bilan Portugaliya 1494 yili Tordosilyas shartnomasi bilan o'z harakat doiralarini taxminan 46° g'arbiy uzunlikdan o'tgan meridian yo'nalishidagi demakratsion chegara bilan ajratib olishdi. Bu chegaradan g'arbdagi yerlar, suvlar va kelgusidagi kashfiyot yo'llari Ispaniyaga, undan sharqdagilari Portugaliyaga qaraydigan bo'ldi. Yerning ikkinchi tomonidagi, ya'ni Osiyoning sharqiy qirg'oqlaridagi chegara qayerdan o'tishi noaniq bo'lib qoldi. Asosiy ziravorlarni yetkazib beruvchi Ziravorlar (Mollukko) orollari xuddi o'sha tomonda joylashgan edi. Bu orollardan Portugaliya foydalanar edi, lekin ispanlar portugallarning shunday huquqqa ega ekanliklariga shubha bilan qarar edilar. Magellan ekspeditsiyasi Molukko orollari o'rnini aniqlash maqsadida tashkil etilgan edi, lekin bu ekspeditsiya Afrikani aylanib o'tib Portugaliyaga qarashli suvlardan borishi mumkin emas edi. Magellan yerning sharsimonligi g'oyasiga asoslanib, Molukko orollariga g'arbiy yo'l bilan borish loyihasini taklif qildi.

Birinchi dunyo aylana ekspeditsiyasining natijalari uning o'z oldiga qo'ygan xususiy iqtisodiy vazifasidan benihoya katta bo'ldi. Bu ekspeditsiyadan keyin insoniyat yerning qanchalik katta ekanini bilib oldi, A. Vesputchining, Kolumb yerlari, hech bo'lmaganda bu yerlarning ekvatoridan janubdagi qismi, Osiyoning bir chekkasi emas, u Yangi dunyo, degan taxmini tasdiqlandi, yerda quruqlik emas, balki suvlik maydoni katta ekanligi, ilgari noma'lum bo'lgan juda katta Buyuk, ya'ni Tinch okean borligi aniqlandi.

Magellan ekspeditsiyasidan keyin ham uzoq vaqtlargacha kartalarda janubiy

yarim sharda Terra australis incognita tasvirlanib kelgan, Magellan bo'g'ozining janubiy qirg'og'i (Olovli Er) ana shu Janubiy Yerning chekkasi deb hisoblanar edi. Ispanlar, portugallar va gollandlar bu noma'lum materikni qidirib yo'lda ko'p kashfiyotlar qilishdi (Yangi Gvineya, Avstraliyaning g'arbiy qirg'og'i, Tasmaniya, Tinch okeandagi orollar topildi).

XVI—XVIII asrlarda G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan mustamlakalarni bosib olish harakatida Ispaniya va Portugaliya bilan bir qatorda Angliya va Niderlandiya ham ishtirok eta boshlashadi. Bu mamlakatlar ham Hindiston bilan Xitoyga intilishdi. Janubiy yo'llar bu davlatlar uchun berk bo'lganligidan ular boshqa yo'nalishda kashfiyot qilishdi. Ingliz savdogarlari Kolumb kashfiyotlari haqida eshitishlari bilan 1497 yildayoq ota va o'g'il Kabotlarning ikkita ekspeditsiyasini tashkil etishdi. Bu ekspeditsiyalar Bristoldan chiqib, g'arbga qarab jo'nadi, ular Nyufaundlend va Labrador geografik kengliklarida Shimoliy Amerikaga yetib borishdi. Bu yerdan Xitoyning kutilgan boyliklarini topolmagan inglizlar Kabotlar kashfiyotlariga ahamiyat berishmadi. Shu bilan birga bu ekspeditsiyalarning muvaffaqiyatsizligi Angliyani Xitoyga boradigan yangi yo'llar qidirishga majbur etdi.

Qidiruvlar yo'nalishini ruslar ko'rsatib berishdi. 1525 yilda rus elchisi Dmitriy Gerasimov Rim papasi va adabiyotchi hamda tarixchi Pavel Ioviy bilan suhbatida G'arbiy Yevropada birinchi bo'lib shimoli-sharqiy yo'l, ya'ni Sharqiy Osiyoga Yevrosiyoning shimoliy qirg'oqlari bo'ylab boradigan dengiz yo'li haqidagi fikrni aytdi. D. Gerasimov Germaniya va Rimda bu fikrni tasdiqlovchi kartani ham ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Dmitriy Gerasimov ma'lumotlari Marko Polodan olingan ma'lumotlar bilan o'z-o'zidan bog'landi. Yevropaliklar bu ma'lumotlarni o'z manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilib, kartada katta Xitoy ko'lidan oqib chiquvchi Ob daryosini tasvirlashdi. Kartada tasvirlangan Ob daryosi quyilish joyiga yetib borilsa va bu katta daryodan yuqori oqimiga ko'tarilsa, to'ppa-to'g'ri Xitoyning markaziy qismiga boriladi. Bu kartada Irtish daryosi bilan Zaysan ko'lining istalganicha kattalashtirib yuborilganligini ko'rish qiyin emas.

Shimoli-sharqiy yo'lni qidirishni 1553 yilda Gugo Villoubi boshchiligidagi ingliz

ekspeditsiyasi boshlab berdi, bu ekspeditsiyaning Chensler boshchilik qilgan bir kemasi Shimoliy Dvinaga kirib kelib, Moskoviya bilan savdo aloqasini bog'ladi. 1594 yildan 1597 yilgacha V. Barenst uchta ekspeditsiya uyushtirdi. Barenst uchinchi ekspeditsiyasi vaqtida g'arbiy Yevropaliklar tarixida birinchi marta Novaya Zemlyada qishlab qoldi va shu yerda vafot etdi. G'arbiy Yevropaliklarning bironta ham kemasi Novaya Zemlyadan nariga o'ta olmadi.

Ingliz dengizchilari sharqiy yo'lni qidirish bilan bir vaqtda shimoli-g'arbiy yo'l orqali Amerikani shimoldan aylanib Xitoyga borishga ham harakat qilishdi.

Hindistonga boradigan shimoli-g'arbiy yo'lni qidirishni Kabotlardan keyin birinchi bo'lib Martin Frobisher qayta boshlab berdi. 1576—1578 yillarda uch marta ekspeditsiya uyushtirib, muvaffaqiyat qozonolmadi. 1585—1587 yillarda ingliz Devis ham uchta ekspeditsiya uyushtirdi. Angliya va Gollandiya xizmatida bo'lgan Gudzonning 1607—1610 yillardagi suzishlari anchagina geografik natijalar berdi. Bu tadqiqotchilarning nomlari geografik kartalarda qayd qilingan, Biroq bular shimoli-g'arbiy yo'lni ocha olmadilar.

Bu vaqtda Amerikaning ichki o'lkalarini — fransuzlar Kanadani, inglizlar AQSh teritoriyasini kashf etishi va mustamlaka qilishi boshlandi.

1588 yilda Angliya bilan Gollandiya Ispaniya-Portugaliya birlashgan flotini («Yengilmas Armadani») tor-mor qilganlaridan keyin janubiy dengizlarda jadal ekspeditsiya va Janubiy Osiyo, Avstraliya hamda Okeaniya mamlakatlarini zo'ravonlik bilan mustamlaka qilish boshlandi.

Ruslar juda ko'p geografik kashfiyotlar qilishdi. Ular boshqa har qanday xalq kashf qilganiga qaraganda ko'proq territoriyani kashf qilishdi deyilsa, xato bo'lmasa kerak. Rus kishilarining geografik faoliyatini insoniyatning yerni bilishdagi umumiy ishining bir qismi deb, jahon fani va madaniyatini rivojlantirishga qo'shilgan hissa deb qaramoq kerak.

Yermakning 1581 yildagi yurishi ruslarning sharqqa tomon uzoq vaqt to'xtab turgan harakatiga yo'l ochdi. 1587 yilda Sibirning birinchi guberniya shahri Tobolskka asos solindi. V.I. Lenin ta'biri bilan aytganda, bu vaqtdagi geografik kashfiyotlarga «oblastlar o'rtasida kuchayib borayotgan mol ayirboshlash, asta-

sekin o'sib borayotgan tovar muommalasi, kichik-kichik mahalliy bozorlarning bitta umumrossiya bozoriga markazlashuvi» sabab bo'ldi. Bu protsessning rahbarlari va xo'jayinlari savdogar-kapitalistlar bo'lganligidan bunday milliy aloqalarni- yaratish burjuaziya -aloqalarini yaratishdan bo'lak narsa emas» Sharqqa tomon yurishning sababi, aftidan, mo'ynaga bo'lgan ehtiyoj edi.

Rus xalqi orasidan XVII asrning atoqli sayohlari etishib chiqdi. Ularning mardligi Vatan foydasi uchun, kelajak avlod farovonligi uchun xizmat qildi. Sibir xalqlari bilan bo'lgan yaxshi munosabatlar sayohatlarning muvaffaqiyatli bo'lishiga qulaylik tug'dirdi.

1584—1598 yillar oraligida Luka boshchiligidagi «Arktikaga birinchi rus geografik ekspeditsiyasi» (V. Vize) amalga oshirildi. Uning vazifasi Obning quyar joyi bilan Yeniseyning quyi oqimi oralig'idagi yerlar tabiatini tasvirlash edi. 1601 yilda Taz daryosi bo'yida Mangazeya shahriga asos solinadi, bu shahar mo'yna savdosini keng rivojlantirdi va ruslarning sharqqa tomon harakatida tayanch punkt bo'ldi. Mangazeyaliklar o'sha vaqtning o'zidayoq Taymir yarim orolini aylanib o'tishdi. So'ngra ular Yeniseyga chiqib kelib, Turuxansk shahriga asos solishdi. Shu bilan bir vaqtda Yeniseyga janubiy yo'l orqali ham borildi: 1619 yilda Yeniseysk, 1628 yilda esa Krasnoyarskka asos solindi.

Yer ochuvchi sayyohlar (zemleproxodestlar) 1619—1620 yillarda Lenagacha yetib borishdi, 1630 yillarda esa Penda geografik jasorat ko'rsatdi. U Turuxanskdan Tunguska orqali Lenaga bordi, Lena bo'ylab yuqoriga tomon Angara suvayrig'ichigacha ko'tarildi va Angara hamda Yenisey bo'ylab Turuxanskka qaytib keldi. 1632 yili Yakutskka asos solindi. Shundan keyin rus kazaklaridan I. Rebrov, I. va E. Erastovlar, M. Staduxin Olenek, Indigirka va Kolima daryolarini topishdi, I. Moskvitin esa 1638 yili Oxota dengizi qirg'og'iga chiqib bordi.

Bir oz keyinroq 1643—1651 yillarda V. Poyarkov va E. Xabarov Amurni topishdi, Amurbo'yini o'zlashtirishdi, Poyarkov esa Primorega kirib bordi.

S. Dejnyov bilan F. Popovning 1648 yilda Osiyoning shimoli-sharqini aylanib o'tgan ekspeditsiyasi geografik kashfiyotlar tarixidagi muhim kashfiyotlardan biridir. Bu ekspeditsiya Osiyoning shimoli-sharqiy chekkasini kashf qildi va uning

sharqiy qirg'oqlari yaqinida dengiz yo'lagi borligini aniqladi. Bu bilan Kolumb kashf qilgan yerlar Magellan aniqlagan janubdagina emas, balki shimolda ham Osiyoning bir bo'lagi emasligi isbot qilindi. Bu bilan jahon kartografiyasi va geografiyasining o'sha vaqtdagi asosiy masalalaridan biri — Tinch okeanning shimolidagi quruqliklar qirg'oqlarining qiyofasi masalasi hal etildi.

Bu ekspeditsiya olib kelgan ma'lumotlar Dejnyov bilan shaxsan suhbatlashgan va uning aytganlarini o'zining «Sibir tarixi» asariga kiritgan tobolskik tarixchi Yu. Krijanich tufayli jahon faniga ancha tez kiritildi va kartalarda aks ettirildi.

XVII asr oxirida ruslarning Shimoliy Osiyoni o'zlashtirishi tugalladi. 1695 yilda Kamchatkada uning kashfiyotchisi va «egasi» Atlasov sayohat qildi.

Ruslarning geografik kashfiyotlari Osiyo bilan chegaralanib qolmay, Bering bo'g'ozidan o'tib, Shimoli-G'arbiy Amerikaga ham yoyildi. Rus Amerikasi San-Fransiskogacha cho'zilgan edi. U yerda ruslar ispanlar bilan uchrashishdi.

Ruslarning geografik kashfiyotlari nihoyatda tez bordi. Uraldan oshib o'tilgandan (Yermak, 1581) Buyuk okean qirg'oqlariga yetib borilguncha (Moskvitin, 1638) bor-yo'g'i 57 yil o'tdi. Qiyoslash uchun shuni aytish mumkinki, ispanlar Kolumb kelib, quruqlikka tushgan yerdan to San-Fransiskogacha, ya'ni ruslar bilan uchrashishgan yergacha 300 yilda borishdi, vaholanki, bu hudud Shimoliy Osiyoga qaraganda ko'p martaba kichikdir.

Feodal tarqoqlikning tugatilishi va markazlashgan davlatlarning tashkil topishi bilan geografik kartalarga zaruriyat tug'ildi. Quruqlikni kartaga muntazam ravishda tushirib borish o'sha vaqtdan boshlandi. Rossiyada XVI asr oxirida «Bolshoy chertyoj»— Sovet Ittifoqining hozirgi Yevropa qismi hududining katta qismini o'z ichiga olgan karta va «Bolshoy chertyoj» kitobi — eng muhim geografik obyektlarning tasviri tuzilgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar kartografiyaning rivojlanishiga yanada katta turtki bo'ldi. XVI asrda G. Merkator karta tuzishning matematik prinsiplarini ishlab chiqdi, bir qancha proyeksiyalar taklif qildi va Yangi dunyoning ham, Eski dunyoning ham ko'pdan-ko'p kartalarini tuzdi.

Ruslarning Shimoliy Osiyodagi geografik kashfiyotlari 1667 yili Tobolskda P. I.

Godunov tomonidan tuzilgan «Sibir yerlarining chertyoji»da hamda XVII va XVIII asrlar oralig'ida S. U. Remezov tuzgan «Sibirning chertyoj kitobi»da, ya'ni birinchi rus atlasida umumlashtirilgan.

XVI va XVII asrlarda geografiyadan ilmiy umumlashtiruvchi asarlar — S. Myunsterning «Kosmografiya»si (Germaniya (1544), «Bogdan Likov kosmografiyasi» (Merkator Atlasining tarjimasi, Rossiya, 1637) va B. Vareninyning «Umumiy geografiya»si (Gollandiya, 1650) paydo bo'ladi.

Amerika qit'asida turli tillar oilasiga tegishli xalqlar yashagan. Ular xo'jalikning turli sohalari bilan shug'ullanib kelishgan. Ko'p qabilalar ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirganlar. Shu bilan birga Shimoliy Amerikaning janubiy qismida, Markaziy va Janubiy Amerikaning tog'oldi vodiylari hamda bir-biriga yaqin bo'lgan katta-kichik vohalarda yaxshi rivojlangan dehqonchilik xo'jaliklari ham bo'lgan. Bu joylarda kechua, mayya, astek, olmek, toltek xalqlari dehqonchilik qilishgan. Ular toshboltalar bilan o'rmon kesib, daraxtlarni yoqib kuli bilan yerni o'g'itlaganlar. Amerika qishloq xo'jaligida Yevropada ma'lum bo'lmagan: makkajo'xori, kartoshka, kungaboqar, pomidor, kakao, tamaki yetishtirilgan.

Qit'ada qo'lga o'rgatilgan hayvonlar juda kam bo'lgan. Ma'lumki ot, sigir, qo'y kabi uy hayvonlari Amerikaga Yevropaliklar tomonidan keltirilgan. Amerikada xonakilashtirilgan hayvonlar, shimolda it, janubda tuyasimon lama, kurka va o'rdaklar bo'lgan, xolos. Hindular boshqa qit'alar aholisiga qadimdan tanish bo'lgan temir eritishni bilmaganlar. Shu sababli ularda temir asbob-uskunalar, omoch, g'ildirak, turli o'tochar qurollar bo'lmagan. Hindular ish qurollarini yog'och, tosh va jezlardan yasashgan. Aholining ko'pchiligi ibtidoiy jamoa tuzumi darajasida yashaganlar. Aytish kerakki, shu bilan birga mayya, astek va inklarda ilk davlatlar paydo bo'lgan edi, ularning xo'jaligi, madaniyati taraqqiyoti boshqa elat va qabilalardan ancha ustun turgan.

Masalan, Markaziy Amerikaning Yukatan yarim orolida, hozirgi Meksika hududida mayya xalqlari yashagan. Ular barpo etgan mayya davlatida yer jamoalarga qaragan, jamoa esa o'z tarkibidagi har bir oilaga o'rmondan tozalangan yer maydonini berib jamoa a'zolari yetishtirgan hosilning bir qismini hukmron

aslzodalar va kohinlarga soliq sifatida berganlar. Xo'jalikda, shuningdek, urushlarda olingan asirlar, qarzlari tufayli qullikka tushgan kishilar ham ishlagan, Milodning birinchi ming yilligida mayyalarda shahar-davlatlar vujudga kelgan. Bu shaharlarda "buyuk kishilar" hukmdorlik qilganlar. Mayyalarda hokimiyat nasldan-naslga o'tardi. Hukmdor aholidan tushgan soliqlar evaziga davlat ishlarini yuritgan.

Zodagonlar shahar markazidagi tosh qasrlarda, oddiy xalq esa shahar atrofidagi tomi qamishdan yopilgan, pastqam, uylarda yashaganlar. Millodning boshlarida mayyalarda yozuv paydo bo'lgandi. Ibadatxonalarda kohinlar qilqalam bilan iyerogliflarni (surati yozuv) yozib turli diniy kitoblar yaratganlar. Mayya xalqlari hayotida kohinlarning roli ayniqsa katta bo'lgan. Ular jamoa a'zolariga dehqonchilik ishlarini olib borish muddatlarini belgilab berishgan. Dehqonchilik ehtiyojlari uchun kalendar- taqvim zarur bo'lgan va mayyalar qadimgi xalqlar ichida eng aniq taqvimlardan birini yaratgan. Mamlakat poytaxti - Chichen-Isadagi rasadxonada kohinlar sayyoralarnirig Quyosh atrofida aylanish vaqtini hisoblab chiqqanlar. Mayya astronomlari Quyosh va Oyning tutilishlarini oldindan aniqlaganlar. Me'morchilikda ham mayyalar ulkan muvaffaqiyatlarga erishganlar. Ular baland poydevorlarda va sun'iy tepaliklarda zinali ehromlar (piramidalar) shaklda qasr va ibodatxonalar qurishgan. Saroy va qasrlarni -bo'rtma suratlar, ma'budalarning haykallari, freskalar - devordagi rasmlar bilan bezashgan. Mayyalar shaharlari ko'chalari tekis va ravon hamda tosh yotqizilgan bo'lgan.

1.3. Buyuk geografik kashfiyotlarning o'rganilish tarixi

Buyuk geografik kashfiyotlar deyarli butun insoniyat tarixi davomida amalga oshirilgan quruqlik va dengizdagi eng muhim kashfiyotlar kompleksi deb tan olingan. An'anaviy ravishda buyuk geografik kashfiyotlar faqat yangi era davomidagi buyuk geografik kashfiyotlar bilan belgilanadi. (XV asr o'rtalari -XVII asr o'rtalari). Dastlabki davrga quyidagi kashfiyotlar kiradi: Janubiy Osiyo va Hind okeani (Xarappa sivilizatsiyasi dengizchilari va savdogarlari, eramizdan avvalgi XXI-XX asrlar); Yevropaning Janubiy qirg'oqlari, O'rta yer dengizi va Qora dengiz (krit va axey dengizchilari, eramizdan avvalgi XVI-XIV asrlar); Sharqiy Osiyo (In savdogarlari, harbiylari, dengizchilari; eramizga qadar XIV-VIII asrlar); Afrika

atrofida suzish va uning kattaligini aniqlashtirish finikiyalik dengizchilari eramizgacha 609-595 yy); Shimoliy Atlantika, Buyuk Britaniya oroli, Shimoliy va Baltika dengizlari (Piteas eramizdan avvalgi 320 yilga qadar); Sharqiy Yevropa (Kiyev Rusi savdogar va kolonislari; 9-10 asrlar); Grenlandiya va Amerika shimoli-sharqi (Erik Raudi, Leyf Erikson, 981-1004).

Markaziy va Janubiy Amerika kashf etilishi (X.Kolumb, A.Vespuchchi, A.Veles de Mendosa (A.Velez de Mendoza) va boshqalar 1492-1502); Yevropadan Hindistonga dengiz yo'llari (Vasko da Gama, 1497-99); 1-yer aylana sayohat (F.Magellan, 1519-22) - Dunyo okeanining mavjudligi va Yerning shar shaklini isbotlagan; Shimoliy Osiyo va uni Shimoliy Amerikadan ajratib turuvchi bo'g'oz (Yermak, I.Yu. Moskvilin, S.I.Dejnev, 1582-1648); Avstraliya (A.Tasman, V.Yanszon, 1606-42).

Buyuk geografik kashfiyotlar keyinchalik ham amalga oshirilgan: Alyaskaning ochilishi (M.S.Gvozdev, V.Bering, A.I.Chirikov, 1732-41) va Antarktida (F.F.Bellinsgauzen, M.P. Lazarev, 1820). Ilmiy ahamiyatiga ko'ra buyuk geografik kashfiyotlar qatoriga Dunyo okeani tubi relyefini aniqlash borasidagi tadqiqotlarni (Ch.Tomson, D.Merrey, 1872-76) va yagona planetar tog' tizmalarining okeanlar o'rtasi tizimi kashf etilishini ham kiritish mumkin. (B.Xeyzen, G.Menard, D.L.Bezrukov va boshqarlar, 1955-62).

P.G.Terexovning "Umumiy yer bilimi" kitobida XV asr oxiri XVI asr boshida 50 yildan ham oz muddat ichida Yevropaliklar deyarli butun yer shari tog'risidagi geografik ma'lumotlarini kengaytirdilar. Ular quruqlik va okeanlarning butunlay noma'lum bo'lgan juda katta qismlarini kashf etdilar. Shuning uchun ham bu davr

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb ataladi". "Geografik kashfiyotlar" deb faqat yangi, avval ma'lum bo'lmagan "quruqlik yo'lidagi" yoki "hududiy" geografik obektlar: tog', ko'l, orollar va hokazolarning (aniqlanishi) topilishi tushunilgan. 1872 yili "Chellenjer"da qilingan ekspeditsiyadan so'ng "geografik kashfiyotlar" tushunchasiga okeanografik kashfiyotlar - Dunyo okeanidagi kashfiyotlar ham kiritiladigan bo'ldi.



1-rasm. Shimoliy Amerikaning o'rganilishi.

Hozirgi davrda geografik kashfiyotlar tushunchasiga yangi geografik qonuniyatlarning ochilishi, yangi ilmiy nazariyalar, yangi ilmiy qonunlarning aniqlanishi, geografik obyektlarni ilmiy o'rganish jarayonida erishilgan yangi yutuqlar ham kiritiladi. N.G.Fradkin o'zining "Geografik kashfiyotlar va Yerning ilmiy o'rganilishi" (1972) kitobida va undan so'ng Yu.G.Saushkin "Geografiya fani kecha, bugun, erta" kitobida (1980) bunday kashfiyotlarni nazariy deb ataydi.

N.G.Fradkin agar o'tmishda geografik kashfiyotlar xalq vakillarining u yoki bu geografik obyektini (materik, bo'g'oz, vulqon va boshqalar) birinchi marta borib ko'rishi, yozuvga ega bo'lib, o'sha obyektini tavsiflashi va uni xaritaga tushurishini

anglatgan bo'lsa, endi geografik kashfiyotlar tushunchasi faqat hududiy emas, balki geografiya doirasidagi nazariy kashfiyotlarni, yangi geografik qonuniyatlarning ochilishini ham tushunmoq kerak deb hisobladi. Yu.G.Saushkin «nazariy geografik kashfiyotlar fanning fundamental tadqiqotlari sirasiga kiradi. Yer yuzasini - ham quruqlikni, ham dunyo okeanini o'zlashtirish jarayonida ular hayotiy zarurdir» deb yozadi.

Shu tarzda xulosa qilish mumkinki, geografik kashfiyotlar turlicha bo'ladi. Tabiiyki, o'tmishda hududiy kashfiyotlar ko'p bo'lgan. Eng mufassal aniqlikni I.P.Magidovich va V.I.Magidovichlar geografik kashfiyotlar tarixi bo'yicha ancha fundamental ilmiy asar bo'lgan "Geografik kashfiyotlar tarixidan ocherklar" (1982) muqaddimasida beradilar.

Ular geografik kashfiyotlar tushunchasi ostida «yozuvni (rasmlaridan tashqari) biladigan xalq vakillari tomonidan avval ma'lum bo'lmagan yoki faqat eshitib ma'lum bo'lgan okeanlar qismlari, dengizlar, qo'ltiq va bo'g'ozlar, materiklar va ularning qismlari, orollar, daryolar va ko'llarni birinchi marta maqsad qilib yoki tasodifan borib ko'rilishining tarixiy isbotlanganlarini» tushunadilar.

Hozirgi vaqtda bunday kashfiyotlar asosan yakunlangan va okean va dengiz qirg'oqlarini, muzliklar chegaralarini aniqlash, o'rmon massivlarini chizish va hokazolardan iborat. Shuningdek eng asosiy okeanografik kashfiyotlar ham amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda nazariy kashfiyotlar uzunlik qilmoqda.

Modomiki nazariy kashfiyotlarga tadqiqotlar orqali - turli usullar bilan va turli sharoitlarda ishlash jarayoni orqali, shu jumladan ekspeditsiyalar, yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni orqali erishilar ekan, ularni tadqiqotlar asosidagi kashfiyotlar deb ham atash mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, zamonaviy geografik kashfiyotlar tarixi faqat yer yuzasini: alohida kontinentlarni, okeanlarni, dengizlarni, orollarni, planetamiz geografik xaritasini uzluksiz aniqlashtirish va tadqiq etish jarayoni davrlarinigina emas, balki uni geografik bilimlar tarixi va geografiya fani tarixi bilan yaqinlashtiradigan nazariy geografik kashfiyotlar tarixini ham qamrab olishi kerak.

Bu o'z navbatida keyingi umumlashtirishlar uchun - avval emperik, so'ng nazariy xulosalar uchun zarur bo'lgan ulkan faktik materiallarni to'plagan sayohatchilar va ekspeditsiyalarga yana ham jiddiy e'tibor qaratishni talab etadi. Ular ichida ayniqsa o'lja uchun emas, haqiqat uchun uzoq safarga chiqqanlarga, notanish joylar va geografik obyektlarni xaritaga tushirish bilan chegaralanmay, turli xil tadqiqotlar olib borib, ularning xususiyatlarini o'rganib, olingan xulosalarni jamiyat foydasiga qaratishga harakat qilganlarga e'tibor qaratish lozim.

Geografik kashfiyotlar va tadqiqotlar tarixining geografik bilimlar tarixi, g'oyalar tarixi, geografiya fani tarixi bilan chambarchas bog'liqligi bu tarixchilar uchun umumiy davrlashtirishni qo'llash imkonini beradi. So'nggi manbalar orasida M.M.Golubchik, S.P.Yevdakimov va G.N.Maksimovlarning "Geografiya tarixi" (1998) kitobida bu masala yetarlicha asoslab bayon etilgan.



2-rasm. Janubiy Amerikaning o'rganilishi

Bunday davrlashtirishni ular 4 davr yoki bosqichga bo'ladi: birinchisi - geografik bilimlarning dastlabki jamg'arilishi va geografiyaning fan sifatida shakllana boshlashi (qadimgi davrlardan XVII asr o'rtalarigacha), ikkinchisi - geografik bilimlarni ilmiy tizimlashtirish, tartibga solish davri (XVII asr o'rtalaridan XIX asr o'rtalarigacha), uchinchisi - zamonaviy geografiyaning shakllanishi (XIX asr o'rtalaridan XX asr 20-yillarigacha) va to'rtinchisi - zamonaviy geografiya davri (XX asr 20-yillaridan hozirgi davrgacha).

Bu mualliflar keltirilgan «bosh davrlashtirish»... boshqa, yanada mayda qismlarga bo'lishni istisno etmaydi deb hisoblaydilar. "Buyuk geografik kashfiyotlar davri" birinchi davrning so'nggida ajratilgan va o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan. Geografik kashfiyotlar turli masshtabda bo'lishi mumkin: global-planetar va mintaqaviydan to mahalliy - o'lkashunoslikkacha.

A.G.Isachenko Kolumbgacha Amerikaning borib ko'rilganligi ehtimoli haqida fikr yuritar ekan, "Geografik fikrlar rivoji" (1971) kitobida quyidagilarni yozadi: "...bunday voqeani kashfiyot sifatida ko'rib chiqish to'g'riligi ehtimoldan uzoq, u hech qanday tarixiy rol o'ynamadi, insoniyatning geografik tasavvurlariga ta'sir ko'rsatmadi...". Bu masalada Z.I.Gordeyeva fikri ("Yerning geografik kashf etilishi: tarixi va istiqboli" NIA-Priroda nashriyoti, 2002) A.G. Isachenko fikri bilan qarama - qarshi. Uning fikricha, bunday deyish faqat Buyuk kashfiyotlarga nisbatan to'g'ri bo'lishi mumkin. Agar «tarixiy naf (ta'sir)» bir necha marta kam bo'lsa-chi? Agar inson birinchi bor ko'l yoki avval geograflarga noma'lum bo'lgan tog' cho'qqisini topsa-chi?.

1946 yil Moskva viloyati Ruzskiy tumani yosh tabiatshunoslarining Markaziy stansiyasi tomonidan A.Ye.Stavrovskiy rahbarligida tashkil etilgan bolalar yozgi ekspeditsiyasi qilgan ishni qanday atash mumkin? Ekspeditsiya yakunlaridan biri shu bo'ldi-ki, I.A.Zdanovskiyning o'sha davrgacha eng mufassal hisoblangan gidrografik xaritasiga to'rtta aniqlanmagan daryocha belgilandi: Studentka, Poboyenka, Kazanochka va Gryazka.

Bu gidrografik topilma geografik kashfiyot emasmi? Albatta, bir tomondan bu mahalliy kashfiyot, «o'lkashunoslik, masshtabidagi kashfiyot bo'lsa-da, boshqa

tomondan ular yetarlicha ahamiyatli, modomiki bu kashfiyotlar tufayli geografiya planetar jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan Buyuk Volga daryosi «kapillyarlari» haqida yanada obyektiv bilimlarga yaqinlashdi: U bolalar kim, biz ular haqida nima bilamiz? I.M.Zabelinning "Aslida bo'lmagan uchrashuvlar" (1958) kitobida keltirilgan mulohazaga qo'shilish mumkin. "biz hali kamtarin kuzatuvchilarga yetarlicha e'tiborli emasmiz... Buyuk sayohatchilar va dengizchilarning safarlari yer shari bo'ylab ingichka va siyrak to'r tortdi, qolgan barchasi biz deyarli eslamaydiganlar tomonidan tasvirlangan va o'rganilgan.

Uncha katta bo'lmagan, lekin barcha uchun qadrlil bo'lgan joyni o'rganganlarnigina emas, balki planetamizning diqqatga sazovar joylarini birinchi kashf etganlarni ham bilish qiziqarli: Amazonka - Janubiy Amerikada joylashgan eng uzun daryoni (shu jumladan uning yerdagi eng uzun daryo ekanini birinchi kashf etganni ham), Mariana botig'ini - Dunyo okeanining eng chuqur (11022 metr) joyini, Baykalni - planetamizdagi eng chuqur ko'lni kashf etganlarni bilish qiziqarli.

Yerning tabiiy qadriyatlarini birinchi kashf etganlar, shu jumladan ruslarga Volga va Okani, moskvaliklarga Moskva daryosi, Ural aholisiga Narodniy tog'larini, Kavkaz xalqiga - Elbrus tog'ini va buni birinchi kashf etganlarni bilish qiziqarli. Albatta, geografik kashfiyotlar tarixi bilan tanishishda dastlab asosiy e'tibor geografiyani mustaqil fundamental fan sifatida shakllanishi va vujudga kelishida katta rol o'ynaganlarga qaratiladi va ular orasida Yerning birinchi tasviridan hozirgi ko'rinishini tasvirlashgacha katta hissa qo'shgan sayohatchilarga e'tibor qaratiladi. XVII asrdan boshlab, e'tiborga molik geografik kashfiyotlarning asosiy qismi maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan bo'ldi. Geografik kashfiyotlar yerni har tomonlama o'rganish jarayonida va atrof-olam haqidagi yangi geografik bilimlar hosil qilinishida katta rol o'ynagan olimlar qo'liga o'tdi.

Geografik kashfiyotlar tarixiga oid bir qator umumlashma adabiyotlar mavjud. I.P.Magidovich "Geografik kashfiyotlar tarixi bo'yicha ocherklar, M., 1957, Ya.F.Antoshko va A.I.Solovyov "Yerni geografik o'rganish tarixi", M., 1962, A.G.Isachenko "Geografik fikrlar rivoji" M., 1971., V.A. Yesakov "XIX asr - XX asr boshlarida rus geografik tadqiqotlari", M., 1978 (R.U.Rahimbekov, Z.N.Donsova

«O'rta Osiyo tabiatini geografik o'rganish tarixi», T., «O'qituvchi»-1982, 3-bet) kabi asarlarda buyuk geografik kashfiyotlar tarixiga oid ma'lumotlar bor. Z.I.Gordeyevaning "Yerning geografik kashf etilishi: tarixi va istiqboli" (Priroda.2002) kitobida buyuk geografik kashfiyotlar tarixi atroflicha yoritilgan. U ilmiy mazmunda, keng adabiyotlar to'plamidan foydalanilgan holda yozilgan. Unda antik davrdan boshlab bugungi kungacha Yerning geografik o'rganilishi tarixi bayon etilganligi bois unda buyuk geografik kashfiyotlar tarixini bir tizimga solingan, uzviy ketma - ketlikda ko'rib chiqish mumkin. Ammo yuqorida sanab o'tilgan adabiyotlar asosan rus tilida bo'lib, bu o'quvchilar uchun ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi.

O'zbek tilidagi buyuk geografik kashfiyotlar tarixini biz asosan qit'alar va materiklar geografiyasi, umumiy yer bilimiga oid o'quv adabiyotlarida uchratishimiz mumkin. Buyuk geografik kashfiyotlar tarixi insoniyat tarixining bir qismi sifatida tarixiy adabiyotlarda ham uchraydi. Xususan, o'rta asrlar tarixiga oid adabiyotlarda Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb atalgan XV -XVII asr geografik kashfiyotlari tarixini ko'rib chiqish mumkin.

Dunyo geografiyasining umumiy tarixiga doir yirik monografiyalarda O'rta Osiyolik olimlarga yetarlicha o'rin ajratilmagan. Chunonchi, Dj.Beykerning geografik kashfiyotlar va tadqiqotlar tarixi to'g'risidagi kitobida «Al-Beruni» to'g'risida ma'lumot yarim betdan oshmaydi. I.P. Magidovichning «Geografik kashfiyotlar tarixidan ocherklar» asarida Xorazmiy to'g'risida 2 satr, Beruniy to'g'risida 9 satr yozilgan xolos... Rixard Xennigining «Noma'lum yerlar» asarida O'rta osiyolik olim va sayyohlardan ba'zilar qisqa ba'zan xatolar bilan bo'lsa ham har holda tilga olingan. ... Holbuki, O'rta Osiyo va Xurosonda atoqli geograf olim va sayyohlar ozmuncha bo'lmagan, ular ajoyib asarlar yozganlar (X.Hasanov «Sayyoh olimlar» T., «O'zbekiston»-1981, 7-bet).

II-BOB. KRISTOFOR KOLUMB SAYOHATLARI VA UNING GEOGRAFIK AHAMIYATI

2.1. Xristofor Kolumbning hayoti va faoliyati

Xristofor Kolumb – dunyo nom chiqargan. Muhim geografik kashfiyotlar qilgan kishidir. Uni haqli ravishda atoqli dengizchi- sayyoh deb ataydilar. Xristofor Kolumbning hayoti ham, butun bir yangi qit'aning kashf etilishi ham diqqatga sazovordir. Xristofor Kolumb Italiyaning Genuya shahrida, 1451-yilda tug'ilgan. Uning otasi kambag'al hunarmandlardan bo'lib, jundan mato to'qir edi. Xristofor ham yoshligida otasining kasbini qildi, so'ngra savdo-sotiq bilan shug'ullandi. Xristofor 4 ta tilni (italyancha, grekcha, portugalcha va lotinchani) yaxshi bilardi, uning shu tillarda bosilgan talaygina kitoblarni o'qib chiqqani ma'lum. Ana shu kitoblarning ta'sirida bo'lsa kerak, Xristofor osmon va yer bilimiga havas qo'yadi, ayniqsa uni Yerning dumaloqligi masalasi qiziqтира boshlaydi.

Ayni paytda O'rta dengiz bo'ylab kemalarda suza boshladi. Dengiz safarlari orasida karta tuzish va chizish bilan mashg'ul bo'ldi. U geografiya, matematika va astronomiya fanlarini qunt berib o'rgandi.

Kolumb 25 yoshlik vaqtida Portugaliyaga keladi, bu yerda Flippina ismli qizga uylanadi. Qizning otasi Portu-Santo orolining hokimi edi (Atlantika okenidagi Azor orollari orasida) Xristofor ham u yerda borib turdi. Oroidagi hayot Xristoforga katta imkoniyatlar tug'dirdi, u Portugal dengizchilari bilan suhbatlashib, uzoq orollar to'g'risida so'rar edi, shu bilan birga qaynotasining bibliotekasidagi va arxividagi ko'p yangi narsalar bilan tanishib chiqdi. Kolumbning o'zi ham Markaziy Afrika qirg'oqlariga bir necha bor sayohat qildi. Xuddi ana shu davrlarda Xristofor Kolumb uzoq dengiz safarlarining planini tayyorladi. Kolumb Portugaliyadan okean bo'ylab g'arb tomonga ketib, Hindistonga borishni mo'ljalladi. Ma'lumki, Kolumb yashagan asr-g'arbda uyg'onish davri edi. Bu davrda feodal tuzumi ortga surilib, savdo-sotiq rivojlanib va yangi shaharlar barpo etila boshlandi. Pul muommalasi kuchaydi,

pulga zarurat ortdi, Yevropada oltinga talab oshdi. XV asr o'rtalaridan boshlab G'arbiy Yevropaning dengiz bo'yidagi bir qancha mamlakatlarda kemasozlik va kema haydash sohasida ancha muvaffaqiyatlarga erishildi.

Shular natijasida uzoq mamlakatlarda dengizda suzish harakatlari ko'paydi. Bunday dengiz sayohatlaridan maqsad- Osiyoning bosh mamlakatlariga dengiz orqali tezroq borish va u yerlardan "xoxlagancha" oltin va qimmatbaho buyumlar keltirish istagi edi. Lekin Yevropadan Osiyoga borib kelib yurgan ilgari katta yo'lni (O'rta dengiz- Arabiston-Eron orqali boriladigan savdo yo'lini) XV asr o'rtalarida turklar bosib olgan edilar. Yevropa savdogarlari boshqa yo'l topishlari zarur bo'ldi. Bunday yangi yo'llar janubda -Afrika yoqalab yoki g'arbda- Atlantika okeani orqali bo'lishi mumki edi. Xuddi o'sha davrda olimlar o'rtasida Yerning dumaloqligi to'grisida turli fikrlar tarqaldi. Ba'zi olimlar kartalar va globuslar chizib, Atlantika okeanining narigi tomonida (g'arbida) Osiyoning bir chekkasida yozib qo'ya boshladilar. U davrda okean orqasida nima borligini hech kim ko'rmagan va bilmagan bo'ladi.

Dengiz sayohatlari fikri, oltin qidirish harakati ayniqsa Ispaniya va Portugaliyada zo'raygan edi. Ispaniya korolligi va dvoryanlari yangi yerlarga xo'jayinlik qilish, xazinani oltinga to'ldirishni orzu qilganlar. Shu maqsadda ispan va portugal kemalari Afrika qirg'oqlarini kezib yurdilar, dengizlar qurbi yetgancha uzoq-uzoq suzishga, xilvat yerlarda oltin qidirishga intildilar.

1484-yil Portugaliyada "Matematiklar kengashi" tuzilib, utga dengiz sayohatlarining proyektlarini muhokama qilish va amalga oshirish vazifasi topshirildi. Xristofor Kolumb ham afsonafiy Sipango (Yaponiya) va Hindiston orollariga G'arbiy okean orqali sayohat qilish projektini tuzdi.

Kolumb o'sha zamon olimlarining asarlariga asoslanib, g'arb orqali Hindistonga atigi 4-5 ming km yo'l bosish kerakdir, deb taxmin qilgan edi (aslida bundan ikki marta uzoqdir).

Matematiklar kengashi Kolumbni xayolparast hisoblab projektini qaytardi. Chunki Portugaliya koroli bunday sayohatning amalga oshirilishiga ko'zi yetmadi. Kolumbning o'zi uchun katta mukofot talab etishi ham korolga yoqmagan edi.

Kolumb, Portugaliyada ish chiqmagandan keyin, 1485-yilda ehtimol boshqa yerda menga quloq solishar degan umidda, Ispaniyaga ko'chib ketdi. To'g'risi Kolumb o'zining bir o'g'linigina olib ko'chishga majbur bo'ldi. Chunki din ahllari uni xudosizlikka "Yerni dumaloq degani uchun" ayblagan edilar. Kolumb Ispaniya kelgach, avvalo badavlat bir necha shaxzodalarga murojaat qildi, 3-4 ta kema xarajatlarini berib tuirishni so'radi. Shaxzodalar Ispaniya malikasiga xabar berdilar. Malika Izabella bir kun Kolumbni o'z saroyiga chaqirib, hamma narsani so'radi, so'ngra masalani maxsus komissiyaga topshirdi. Komissiya 4 yil mobaynida - 1486-yildan 1490-yilgacha Kolumbni proyektini muhokama qildi, oxiri baribir, rad etdi. Yerning dumaloqligi va g'arbiy okean bilan Hindistonga borish mumkinligi to'g'risidagi Kolumbning fikrlari "aniq emas" deb baholandi. Lekin, korol bilan malika o'zlari qat'iy yo'q demadilar, qandaydir mulohazalar bilan ishni cho'zib keldilar(ular, uzoq dengiz safariga pul bersak, kuymasmikan, qancha foydasi bo'lar ekan deb qo'rqr edilar).

Xristofor Kolumb esa bo'sh kelmadi, turli yo'llar bilan harakatini davom ettirdi. 1491-yilda ruhoni rahbarni ishga soldi(dengiz orqasidagi kishilarni o'z dinimizga qaratib olamiz deb), moxir dengizchilar va kemasozlar bilan sherik bo'ldi, savdogarlar va bankirlar bilan aloqa tutdi. U, 1491-yilda yana malika huzurida bo'lib, sayohatga yordam berishni va o'ziga admiral hamda korol o'rinbosari unvonlarini berishni so'radi. Kolumbning bunday katta talablari bu gal ham rad etildi.

Nihoyat, 1492-yilda malika ikkita yirik savdogarning qistovi bilan, ularning sarmoyasiga, ekspeditsiya uyushtirishga rozilik berdi.

Korol va malika 30-aprelda korolga guvohnoma yozib berdilar. Bu guvohnomada Kolumbga admiral unvoni va okeanda yangi topiladigan yerlarning yoki sotib olinadigan yerlarning korol o'rinbosari unvoni berilgan edi. Ekspeditsiyaga ikkita kema berildi, matroslar atayin qamoqdagi maxbuslardan tayinlandi. Uchinchi kemani Kolumbning o'zi dengizchi Pinsonning yordamida safarga tayyorladi. Kemalarga "Svyataya Mariya", "Pinta" va "Ninya" nomlari berildi. 1490-yilda Kolumb kemalari (kemalarda 90 kishi bor edi) yelkanlarini

yoyib, okeanga suzib ketdilar. Kemalar g'arbga tomon yo'l oldi. Kemalar karvoni uch kun ichida okean tomonga shu qadar tez suzib ketdiki, kemandagi ba'zi kishilar vaximaga tushib qoldilar. Bundan xavfsiragan Kolumb, bosilgan yo'lni kamroq ko'rsatish uchun, masofalarni kamroq hisoblab turdi. Kemalar Atlantika okenida yurib, uning g'arbiy qismiga ham o'tdilar, u yerdagi suv o'tlari bilan to'lgan Sargasso dengizi uch hafta deganda suzib o'tildi. Nihoyat, ikki oy-yu 7 kundan keyin 1492-yil 12-oktabrda kichik bir orolga duch keldilar. Zambaraklar otilib, yelkanlar tushirildi. Kolumb va uning sheriklari orolga qadam qo'ydilar. Mahalliy aholi yap-yalang'och, burinlariga tilla buloqi taqib yurar edi. Orolning nomi Guanaxani ekan, Kolumb unga San-Salvador ("Xaloskor avliyo") deb nom berdi (hozir bu orol Bagama orollari sostavidagi Uotling orolidir).

Yevropaliklar bu yerdagi oltinni ko'rib, ko'zlari chaqnab ketdi. "Qayerdan topsa bo'ladi, koni qayerda?" deb so'radilar va yanada g'arbga suzib ketdilar. Kolumb o'sha atrofdagi bir necha orollarni aylanib chiqdi, oltin yig'di. Janub tomonga suzib, ikkita katta orolni ko'rdi. Lekin, bu orollarda turli o'simlik va odamlar uchragani bilan, Hindistonning qimmatbaho bo'yoqlari, dorivor giyohlari va shifobaxsh murchlari hech topilmadi. Shularni topish maqsadida Kolumb yana suzib ketdi. Kuba orolini topdi, so'ngra Gaiti orolini topdi (Kolumb uni Espanola deb atadi). Gaitida oltin konlariga duch kelishdi, matroslar ur-yiqit qilib, mahalliy aholini talon-taroj qildilar.

Uchta kemandagi biri shikast edi, Kolumb qolgan 2 kemaga keragicha odamlar olib, istagan kishilarni oltin koni Gaitida qoldirdi. 39 kishi qoldi. Kolumb o'zi kemalar bilan, 1493-yil yanvar oyining boshida vatanga qaytib, 15-martda Ispaniyaga keldilar. G'arbda yangi orollar kashf etilganligi to'g'risidagi xabarlar hamma yoqqa tarqaldi. Kemalarda keltirilgan oltin va asirlar(mahalliy aholi) hammani hayratda qoldirdi.

Kolumb kashf etilgan yerlar Hindistonning bir burchagi bo'lsa kerak, deb o'ylab, ularni "Indiy" deb atadi. Aholini esa indeyeslar deb yurita boshladilar(haligacha Amerika mahalliy aholisini "indeyest" deb yuritib kelinadi). Kolumb

o'zi brogan yerlarni boshqa odamlar topolmasin deb, bosib o'tilgan yo'llarni noto'g'ri tasvirlab ko'rsatdi, kema jurnaliga uzundan uzoq masofalar chizdi.

Ko'p o'tmay, g'arbga yangi ekspeditsiya tayyorlandi. Bu gal 17 ta kemada 1500 kishi otlandi. Kemalarga ot, eshak, qoramol, cho'chqa, qo'y va turli ekin urug'lari ortildi. Kolumb bilan birga yuzlab amaldorlar, va boshqa olg'irlar safarga chiqdilar. Ruhoniylar okean nariyog'idagi majusiylarni xristianlikka aylantirmoqchi edilar.

1493-yil 25-sentabrda kemalar Kadis shahridan yo'lga chiqishdi. Bu gal ham bir qancha mayda orollar (Kichik Antil orollari) hamda Yamayka orolini topib, ilgarigi Espanolaga (Gaiti) kelib tushdilar. Hayhot, bu yerda "davlat to'plagani" qolgan 39 kishining birortasi ham tirik emas edi. Ularning zo'ravonligi, talonchiligi mahalliy aholining joniga tekkandan, hammasi o'ldirib tashlangan edi. Osiyoning kattaroq yerlarini qidirib, g'arbga tomon suzib brogan edi, lekin katta yerni topolmadi. Kolumb Espanola orolida 5 ta kema va 500 kishini qoldirib, qolganlarini o'z ukasi Diyego boshchiligida, Ispaniyaga jo'natdi. Askarlar uchun ot-ulov va oziq-ovqat yuborishni koroldan so'rattirdi. Bu narsalar evaziga tilla va asirlar yuborachagini bildirdi.

Kolumb o'zi yangi orollar qidirib yurgan davrida, Ispaniyadan yangi odamlar va oziq-ovqat keltirildi. Ispanlar oroldagi boy joylarga ko'z olaytirib, mahalliy aholini qirg'in qildilar. Yerlarini, mol-mulkini taladilar. Buning ustiga yetib kelgan Kolumb, o'zi ham jangda qatnashdi, indeyestlar shavqatsiz qirildi. Mahalliy aholining deyarli quroli yo'q edi. Ispanlar ularni ot ustida uloq qilib toptadilar, itlarga qoptirdilar.

Shunday qilib, Ispaniya davlati o'ziga birinchi kolonani bosib oldi. Indeyeslarga boj yuklandi- oltin va paxta topib kelishga majbur qilindi. Qurbi yetmaganlar tog'larga qochib, ochlikdan qirildilar. Orada turli kasalliklar tarqalib, bu ham qirg'inni zo'raytirdi. Indeyeslar, qulga aylandi, ekinzor va oltin konlarida ertadan-kechgacha ishlashga majbur etildi.

Shunday bo'lsada, Kolumb safarlari podsho xazinasini oltin bilan to'ldira olmadi. Xarajati ortib borayotgan podsho, yangi daromadlar olish uchun 1495-

yilda farmon chiqardi. Bu farmonga ko'ra, yangi orollarga kim xohlasa borishi mumkin edi, faqat topgan oltinning uchdan ikki qismini davlat xazinasiga bersa kifoya. Shu shart bilan g'arbga shaxsiy kemalar ham borishi mumkin bo'ldi.

Kolumb bu farmonni eshitib, darg'azab bo'ldi, "axir orollarni men ochganman, boshqalarning haqqi yo'q" deb, 1496-yilda tezda Ispaniyaga qaytib keldi. Bu yerda Kolumb, ancha qiyinchilik bilan korolni ko'ndirib, yana uchinchi ekspeditsiyaga tayyorlandi. Olti kema, 300 kishisi bilan, asosan, turmalardan olingan maxbuslar bilan, 1498-yil oxirida yo'lga chiqdi. Bu gal yana bir qancha orollar- Trinidad oroli topildi va janubroqda quruqlikning bir uchi topildi. Bu yerda chuchuk suv ham bor edi. Shularga asoslanib, bu katta yerning davomi bo'lsa kerak, deb o'yladilar. Keyinchalik bu yer Janubiy Amerika ekanligi aniqlandi.

Kolumb yo'lda betob bo'ldi va shu holatda Espanolaga yangi qurilgan shahar – San- Domingoga (hozirgi Syudad- Truxilo shahri) keldi. Lekin bu yerda kolonistlar orasida norozilik tug'ilgan edi. Kolumb qo'zg'olonchilarga yon bosib, ularning talabini qondirishga rozi bo'ldi(yer ajratib berdi, qullar berdi).

Lekin shu orada boshqa katta hodisa ro'y berdi. Portugaliyalik Vasko da Gama Afrika qit'asini janubdan aylanib o'tib, Hindistonga dengiz yo'lini ochgan edi va Vasko da Gama u yerlardan juda ko'p oltin yuklab qaytganligi haqida gap tarqalgan edi. Buni eshitgan ispan koroli va malikasi sarosimaga tushdilar va Kolumbdan norozi bo'ldilar. Kolumb topgan yerlar mutlaqo Hindiston emas, Kolumbning o'zi - yolg'onchi va firibgar, dedilar.

Buning ustiga, Espanoladan turli xabarlar kela boshladi. Kolumb o'g'ri, oltinni xazinadan yashirmoqda, dvoryanlarni o'ldirmoqda, degan bo'htonlar uyushtirildi.

Ispaniya hukumati 1499-yilda Kolumbga berilgan huquqlarni bekor qildi. G'arbdagi yerlarga yangi boshliq tayinlandi. Yangi boshliq esa, Espanolaga kelgan zamono Kolumbni va uning ukasini qamadi va kishanga solib, Ispaniyaga jo'natdi.



3-rasm. Xristofor Kolumb (1451- 1506)

Kolumbning shu tariqa Ispaniyaga kelishi ko'pchilikni hayratga qoldirdi. Axir u yangi orollar ochgan, katta xizmatlar ko'rsatgan "okean admirali" ediku? Jamoatchilik orasida norozilikdan cho'chigan korol, go'yo uni qamash to'g'risida buyruq bermaganday, "Kolumb darhol kishandan ozod etilsin" deb buyurdi. Korol va malika Kolumbga xat yozib, ikkiyuzlamachilarcha unga

sog'lik tiladilar va qamagani uchun "boshqalarni jazolash kerakligini" aytdilar. Korol va Malika o'zlarini oqlash uchun, Kolumbga ozgina mukofot ham bergan bo'ldilar. Kolumbning barcha huquqlari va unvonlarini tiklashga va'da berilgan bo'lsada, lekin u va'da amalga oshirilmadi.

Shu orada g'arbiy orollarda - Hindistonda yangi konlar va yerlar topildi. Minglab talabgorlar ko'chib borishdi. Ispanlar o'sha yillardan boshlab deyarli XIX asr oxirlarigacha Markaziy Amerikada xo'jayinlik qilib indeyslarni shavqatsiz qirdilar, ezdilar ular kuchidan foydalandilar. Espanolani mahalliy aholisi qirilib bitgach, kolonistlar keyichalik u yerda Afrika negrlarini keltirib, bularni ham qulga aylantirdilar.

Xrsitofor Kolumb hamon Hindiston orzusida edi. G'arbdan borib, Hindistonga yo'l ochish mumkin deb ishonar edi. U yana korolga murojaat qilib, 4-ekspeditsiyaga ruxsat so'radi. Lekin bu gal, Kolumb yoniga bir moliyaviy nazoratchi tayinlandi. Yangi ekspeditsiyada 4 ta kema qatnashdi. Kolumb uzoq suzib, Karib dengizidan o'tdi va Gonduras mamlakatiga bordi, u yerda Ispaniya bayrog'ini tikdi.

Shunday qilib, Kolumb Markaziy Amerika qirg'oqlarini ham kashf qilgan edi. Qaytishda qattiq dovulga uchrab, uch oy mobaynida dengiz daxshatlariga dosh berdi. So'ngra Kolumb Kosta-Rika (Boy Qirg'oq), Beraguz (Panama) mamlakatlarini kashf qildi.

Ko'p safardan keyin Yamayka oroliga yaqinlashgan kemalari sayoz joyga o'tirib qoldi. Oziq-ovqat tanqisligi, kemaning buzuqligi dastidan odamlar ko'p mashaqqat chekdi. Espanoladan so'ralgan yordam kelmadi. Kemada qo'zg'olon chiqdi, zo'ravonlar oziq-ovqatni tortib olib, qayiqlarda Espanolga suzib ketdilar. Qolgan kishilar ochlik va kasallikdan juda qiynalib turganlarida, mahalliy aholi-indeyeslar ularni o'limdan saqlab qoldilar. Kolumb ham qutqazib qolindi. 1504-yil 7- noyabrda Xristofor Kolumb og'ir ahvolda Ispaniyaga qaytib keldi. Holi shu darajada og'ir ediki, uni kemadan zambilda ko'tarib chiqdilar. Kolumb Ispaniyada ekan o'zining Yamaykadagi sheriklari- ochlikni birga boshdan kechirgan, mashaqqat chekkan kishilar to'g'risida g'amxo'rlik qildi.

Ularga yordam berishni maosh to'lashni talab qildi. Ammo malika Izabella vafot etgandan keyin Kolumbga munosabat o'zgardi va hech kim unga quloq solmadi. Shundan keyin Kolumbning o'zi, bor bisotini sotib, Yamaykadagi sheriklarini qutqarish uchun kema yubordi.

Buyuk dengizchi sayyoh- Atlantika okeanining nariyog'idagi katta bir quruqlikni topgan Xristofor Kolumb 1506-yil 20-mayda, Ispaniyaning Valyadolid shahrida qashshoqlikda vafot etdi. Bundan ko'pchilik bexabar edi, uni tantana bilan ko'nmadilar. Oradan 27 yil o'tgandan keyingina, bir ispan gazetasida xabar bosildi, unda Kolumb ismli "admiral vafot etganligi" yozilgan edi.

Xristofor Kolumb 4 marta sayohat qildi. Bu sayohatlarning natijasida nima bo'ldi: u 1-marta Atlantika okeanini sharqdan g'arbga tomon, tropik va subtropik o'lkalarda kesib o'tdi, Yevropaliklardan 1-bo'lib Amerika qit'asini sharq tomondan kashf qildi, Markaziy Amerikadagi o'nlab orollarni - Kuba, Gaiti, Yamayka, Puerto-Riko va boshqalarni topdi. Xullas, Kolumb dunyoning yangi bir qit'asini- Amerikani kashf qildi.

Qit'aniku Kolumb kashf etgan, nega Amerika deb nom berilgan?- degan savol tug'ilishi mumkin. Xristofor Kolumb to umrining oxirigacha "Men Hindistonning sharqiy qismini topdim" deb o'ylab yurdi. Lekin yangi yerlarni tekshirgan olimlar, bu- Hindiston bo'lmay, balki tamomila boshqa yer ekanligini aniqladilar. Shulardan biri- Amerigo Vespuchchi ismli dengizchi 1499-1504 – yillarda bir necha marta sayohat qilib, Janubiy Amerikaning Braziliya qirg'oqlarigacha brogan. Amerigo Vespuchchi o'sha yerlarni tasvirlab, bir qancha xat yozgan.

Kartograf Martin Valzdemiyuller 1507-yilda "Kosmografiya" nomli kitobini yozib, g'arbdagi yerlarni "Amerigo o'lkasi" deb atashni taklif qildi. 1510-yilda nashr qilingan dunyo kartasida "Amerika yeri" degan nom paydo bo'ldi. Shunday qilib, Amerigo Vespuchchining nomi butun yangi bir qit'aga berildi. Amerika qit'asining boshqa yerlarini ko'p sayyohlar kezdi, tasvirladi. Lekin shunisi muhimki, Amerikaning shimoli-g'arbiy qirg'oqlarini - Alyaskani bizning

vatandoshlarimiz XVII asrda Semyon Dejnyov, XVIII asr boshlarida esa rus sayyohlari Bering, Chirikov, Gvozdev va Fyodorovlar kashf etganlar.

Amerikaning kashf etilishi XV-XVI asrlarda geografik jihatdangina katta ahamiyatga ega bo'lib qolmay, siyosiy va ijtimoiy jihatdan ham dunyo tarixida ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Bu haqda Marks va Engels "Kommunistik partiya manifestida" Amerikaning kashf etilishi va Afrikani yoqalab o'tadigan dengiz yo'lining ochilishi o'sib kelayotgan burjuaziya uchun yangi faoliyat maydonini yaratdi. Sharqiy Hindiston va Xitoy bozorlari, Amerikani kolonizatsiya qilish, koloniyalar bilan mol ayirboshlash vositalari va umuman mol miqdorining ko'payishi savdo-sotiq, dengizlarda suzish va sanoatda shu tobgacha misli ko'rilmagan darajada dalda berdi va shunday qilib, feodal jamiyatida revolutsion elementlarning tez su'ratlar bilan yuksalishiga olib keldi, degan fikrlarni bayon etdilar.

2.2 Xristofor Kolumb va uning Osiyo sharqiy qirg'oqlariga yetkazuvchi yo'llar bo'yicha loyihalar mazmun-mohiyati

Xristofor Kolumb haqidagi ma'lumotlar juda oz. Uning hayoti davomidagi ko'p sonli jumboqlar geograflar orasida baxs va tortishuvlar chiqardi. Faqat ko'p yillik izlanishlar natijasida oxirgi yillarda, nihoyat, Kolumbning hayoti, uning tug'ilgan joyi va, bir necha ikkilanishlar bilan tug'ilgan yili aniqlandi. Kolumb Genoyalik italyan bo'lib 1415 yilda, o'rta xol jun-mato to'quvchining oilasida tavallud topgan. Kolumbning sistematik ta'lim olganligi haqida aytish qiyin, lekin haqiqatdan ma'lumki u kamida to'rt yilni (italyan, ispan, porugal va lotin) mukammal egallagan. Vaqti va sabablari ma'lum bo'lmasa ham, uning dengiz sayohatlariga juda erta chiqqanliklari ma'lum.

1476 yili u Genoyalik savdo uyining ish boshqaruvchi sifatida Portugaliyaga yuborildi. Portugaliyaga turgan paytida, Kolumb Portugaliyaning Afrikada tashkil qilgan bir necha, xususan, Oltin qirg'oqda hamda bir necha yil davomida Madeyro orolida va unga yaqin bo'lgan Portu-Santu orolchasida yashagan. U shimol tarafga, Angliyaga ham borib kelgan. O'zining "Birinchi sayohat kundaligi"da Kolumb 23 yil dengizda yurganligi va "butun Sharqni va butun G'arbni ko'rdim"deb yozib

o'tgan. Portugaliyada Kolumb portugaliyalik dengizchilar orasiga kirib qolib ularning hikoyalaridan borgan joylarini va ochgan yerlar haqida ma'lumotlarni bilib oladi. Bu paytga kelib portugaliyaliklar Afrika g'arbiy qirg'oqlarini to yaxshi Umid burnigacha to'la to'kis o'rganib, barcha ochishlarni ochib bo'lishgandi. Taxminlarga ko'ra, aynan shu payt ichida Kolubning fikriga Osiyoning Sharqiy qirg'oqlariga atlantik okeani orqali yetib borish g'oyasi paydo bo'lgan bo'lsa kerak va u ushbu g'oyani amalga oshirish rejalarini tuza boshlagan.

Ushbu rejaga qo'l urishdan avval, Kolumb qunt bilan qadimgi va o'rta asrlarga doir kitoblar va kartalarni o'rgana boshlaydi. Bu manbalarda u Yerning sharsimonligi va taxminiy o'lchovlari, suv havzalari (okeanlar) va quruqlikning nisbiyligi, qit'alar va dengizlarning taxminiy joylashuv joylari haqida tasdiqlovchi hujjatlarni o'rganadi. Shu narsa ma'lumki, Kolumb o'z loyihasini tuzish jarayonida negadir Eratosfen tomonidan hisoblab chiqilgan ma'lumotlarga e'tibor qilmay, bu hisoblarni kechroq olib borgan olimlarning ma'lumotlariga (ular yer aylanasining uzunligini taxminan 1/4 darajada qisqartirishgan) tayangan.

Yer kurrasi aylanasining uzunligini aniqlashda xato qilganidan tashqari, Kolumb boshqa bir nihoyatda muhim jumboq – Osiyo qit'asining Sharq tarafiga qanchayin uzoq joylashganligini aniqlashda ham bosh qotirgan.

Antik davrda yashab o'tgan alloma Marin Triskiy masalan, quruqlik sharqqa qarab 225⁰ gacha cho'zilgan deb taxmin qilgan, bu raqam albatta, anchayin orttirib yuborilgan. Kechroq Ptolemey Yevropa va Osiyo qit'asi Yer kurrasining degan xulosaga kelib yuqoridagi raqamni 180⁰ gacha qisqartirgan. Yevrosiyoning haqiqiy uzunligi esa Ispaniyadan to Yaponiyagacha 125⁰ ni tashkil etadi.

Ptolemeyning o'ta nufuzida ishonmay, Kolumb Marin Triskiy hisoblariga ko'proq ishongan, bu olimning hisoblariga ko'proq ishongan, bu olimning hisoblariga 28⁰ Xitoy uchun va undan tashqari yana 30⁰ Yaponiya uchun qo'shimchalar qilgan, bu mamlakatlar Yevropaliklarga hali ma'lum emasdi. Agar bu "tuzatmalarni" inobatga olinsa, (Kolumb esa aynan shu ishni qilgan edi), unda Tokio shahri Kuba orolining g'arbida yotgan meridianda joylashganligi kelib chiqadi. O'zining sayohatini Kolumb San-Vinsent burunidan 9⁰ g'arbroqda

joylashgan Kanor orollaridan boshlamoqchi bo'lgan. Uning hisoblariga qaraganda Atlantika okeani orqali Yaponiyaga yetib borish uchun atigi 68^o masofani bosib o'tish kerak ekan xolos, bu degani 4500-5000 km.

Aslida esa ushbu uzunlik yotqizilgan to'g'ri chiziq bo'yicha taxminan 20000 km masofani tashkil etadi.

Kolumbning bu xato ma'lumotga yana ham ishonishiga sabab, o'sha zamonda Florensiyalik yulduzshunos va geograf olim Paolo Toskanelli bilan xat orqali olib borgan muloqotlari ham unga ta'sir o'tkazdi. Kolumbning Hindistonga dengiz orqali olib boruvchi eng qisqa yo'l haqida yuborgan savoliga Paolo Toskanelli javob tariqasida, bir muncha vaqt avval qirol Alfons V buyrug'iga asoslangan holda portugaliyaliklar monax-olimning yuborgan murojaatnomasiga bergan javob xatining nusxasini yubordi. Ushbu xatda Toskanelli din arbobini qirol Alfons V ga ziravorlar mamlakatiga Afrika qit'asi atrofidan emas, balki Atlantika okeani g'arbida yaqinroq yo'l bilan ekspeditsiya yuborishga undash darkorligini ta'kidlab o'tgan edi. Bu xat bilan birga Toskanelli Kolumbga o'zi tuzgan xaritasini ham yubordi, bu kartada asosan Osiyo qit'asining uzoqligi (uzunligi) noto'g'ri ya'ni orttirib yuborilgan edi.

Toskanellining tahminlariga asosan Lissabondan G'arbga qarab atigi 5000 km suzilsa Sipangiga (Yaponiya) shahriga yetib olish mumkin edi. Toskanellining xati va kartasi bilan tanashgandan so'ng Kolumbga o'zining qilgan hisobotlari adashmaganligidan hech ham shubha yo'qligiga ishonch hosil qildi. Hindistonga olib boruvchi g'arbiy yo'l (yo'nalish) borligiga qat'iyatlik bilan o'zini ishontirdi.

O'zining qilgan hisoblarini Kolumb boshqa argumentlar (ma'lumotlar) bilan ham dadillashtirdi. Antik davri paytidagi geograflarning ishlari bilan tanishayotgan paytda u Strabonning qo'lyozmasidan (x.z.1 asr) o'sha paytlardayoq dengizchilar Atlantika okeanini kesib o'tishga harakat qilib ko'rganlar, ammo bu ishni "uddalash uchun dadillik va oziq-ovqat yetishmagandi".

O'rta asrlarga xos bo'lgan odatga – nufuzli insonlarning obro'siga bo'ysunishlik, Kolumbni bularning barchasiga ishonishga majbur etardi. Kolumbning dunyo qarashiga eng katta ta'sirni Per da Ayining «imago mundi»

(“Olam ta’siri”) deb nomlangan kitobi o’tkazdi, bu kitobda o’sha zamonning barcha geografik bilimlari to’plangan edi.

A.Gumbold Kolumbga kitobning qanchayin ta’sir etganini ko’rsatish uchun: “Imago Mund” kitobining “Amerikaning kashf etilishiga, Kolumbning florensiyalik Toskanelli bilan bo’lgan yozma muloqotidan salmoqliroqdir. Grek mutafakkir olimlar tomonidan yozib qoldirilgan barcha ma’lumotlar ish Arastu, Strabon qo’lyozmalaridagi Sharqiy Osiyoning Gerkules (Gibraltar bo’g’izi) ga yaqin joylashganligi va Hindiston joylashgan yerlarni axtarishga chorlagan satrlarni va Kolumb o’zining sayohatlarida birga olib yurgandi ...”

Buning barchasidan tashqari, Kolumb dengizchilardan azor orolining qirg’oqlariga o’qtin-o’qtin dengiz oqimi noma’lum predmetlari olib kelar ekan: tropik daraxtlarni ayrim turlari, Amerika memozasining mevalari, hamda eski (kuxik) dunyo aholisiga o’xshamagan odamlarning jasadlari. Bu ma’lumotlarni u Osiyoning ko’hna ta’rifnomalari bilan, Azor va Kanar orollarining G’arbida joylashgan deb taxmin qilingan hikoyalar bilan solishtirib ko’rardi. Azor va Kanar orollarining eng g’arbida joylashganlaridan so’ng to Hindistongacha bo’lgan masofada bironta ham quruq yer bo’lmasligi haqida gumon qilishga unga asos qolmagan edi. O’za zamonlarda tarqalgan afsonalarning biri – VI asrda yashab o’tgan irland manaxi Avliyo Brondan go’yoki atlantik okeanida sayr qilayotib u joyda ajoyibotlarga to’la orolni topgani, bu orolni Avliyo Brondan nomi berilgan. Odamlar bu kabi afsonalarga ishonar edilar. Bu orolni o’rta asr kartograflari tomonidan kartalarga tushirganlar. Bu kartalar Atlantika okeanida Brazil va Antil kabi afsonaviy orollar ham tushirilgan edi. Toskanelli hatto Atlantika okeani kesib o’tayotganda Antiliya orolida to’xtab o’tish mumkin bo’lgan punkt deb dalil keltirgan.

Keyinchalik Braziliya va Antiliya nomlari bugungi kunda Braziliya mamlakati va katta va kichik Antiliya orollarida saqlanib qolgan.

Rejaning ilmiy asoslari yakunlanishi bilanoq Kolumb tezlik bilan uni amalga oshirishga kirishdi. 1484 yili u birinchi bor Portugaliya qirol Ionna II ni o’zining rejalarini bilan qiziqtirishga o’rinib qo’rdi. Ushbu rejani o’rganib chiqish uchun qirol

majlis yig'di. Bu majlis Kolumbning rejasini bema'nilik deb baholab unga rad javobini qaytardi.

Rejalarini Portugaliyada darz ketganini ko'rgan Kolumb 1485 yili bu mamlakatni tark etib Ispaniyaga ko'chib o'tdi. U savdo-sotiq markazi bo'lmish Palos shahriga kelib, undan yaqin joylashgan Rabid monastirida istiqomat qila boshladi. Monastirning noziri o'qimishli odam bo'lib chiqdi, geografiyani yaxshi o'rgangan bo'lib, u Kolumbning loyihalari bilan juda ham qiziqib qoladi. Kolumbning rejaları bilan tanishganidan so'ng, u obro' e'tiborga ega bo'lgan zotlar orqali Ispaniya qirolichasi Izabella bilan uchrashuv tashkil qilishga yordam bermoqchi bo'ldi. Bu uchrashuv 1486 yilning may oyida Kord shahrida bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda qirolicha Kolumbning taklifini eshitib, uni ruhoniylar va saroy zodagonlaridan tuzilgan ilmiy kengashga topshirishni buyurdi. Shu yilning o'zidayoq ilmiy kengash Salomonka shahrida bo'lib o'tdi. Loyihaning o'zi va

Kolumbning dunyoqarashlari ayovsiz tanqid ostiga olindi. Izobellaning yo'riqnomasiga ko'ra kengash o'zining yakuniy javobini berishga shoshilmay turardi. Faqat 1490 yilning oxirida deyarli to'rt yarim yildan so'ng Kolumb ekspeditsiyasining loyihasi kengash tomonidan uzil-kesil ravishda rad etildi.

Loyihaga bo'lgan salbiy munosabatini kengash "kuchsiz asoslarga tayangan" deb baholadi. Kolumbning xulosalari esa "har qanday ma'lumotni inson uchun ishonchsiz va aqlga sig'maydigan" darajada ko'rinadi deb asosladi. Kengash Osiyoning sharqiy qirg'oqlariga bo'lgan masofa Kolumb o'rganganidan ancha, uzunligini va bu masofani bosib o'tish uchun uch yil kerak bo'lishini, shuning uchun bu vaqt orasida yetadigan qilib kemalarni oziq-ovqat va chuchuk suv bilan yetarli darajada g'amlashning iloji yo'q deb topdi. Kemalarning qaytib kelish ehtimoli ham so'roq ostiga qo'yildi.

Albatta, kengashning Kolumb loyihaga bo'lgan salbiy qarashi qanday asoslarga tayangan bo'lmasin nihoyatda og'ir berilgan zarba edi. Ammo kengashning qarori faqat Ispaniya qiroli va qirolichasining fikr mulohazalaridan so'nggina kuchga kirishi mumkin edi.

1491 yilning dekabr oyida Kolumb ikkinchi bor Ispaniya qirolchasi bilan uchrashdi. Uning loyihasi yana bir bor ekspertlar tomonidan o'rganib chiqildi, ammo bu safar ham loyiha tasdiqlanmadi; bu safar Kolumb quyidagi talablar qirolchani qoniqtirmadi – ular haddan tashqari xato deb baholadilar. Kolumb quyidagi shartlarni ilgari surgan edi: sayohatga chiqmay turib unga admiral unvoni berilishni va u kashf etgan barcha mamlakatlarning vitse qirol lavozimi berilishini; ushbu unvon va lavozimlar uning ummatlariga o'tishini; u kashf etgan mamlakatlar va ulardan olingan daromadning sakkizdan bir qismini talab qildi.

Qirol va qirolcha kengash a'zolarining qaroriga qo'shildilar. Kolumb uchun o'zining loyihasini boshqa mamlakatga taklif etishdan o'zga chora qolmadi. U Fransiyaga yo'l oldi. Bu vaqt ichida qirol saroyidagi obro'li aslzodalar qirolchaga murojaat etish uchun yo'l topib, Kolumbni zudlik bilan qaytarishni va uning talablarini qabul qilish zarurligini aytib, uni (qirolchani) bu ishni qilishga ko'ndirdilar. Izobella chopar yuborib Kolumbni qaytardi. Kastiliya qirolligi va Kolumb orasida, uning talablariga asoslangan tuzumga qo'l qo'yildi, faqat kashf etilgan mamlakatlardan olinajak daromadlarning 1/8 foizi emas, 1/10 foizi, mukofot sifatida unga berilishi ta'kidlandi.

Kolumbning tadbirini yirik va obro'li moliyachilar tomonidan mablag' bilan ta'minlanardi. Qirol saroyidan Palos portiga (Kadiss ko'rfazi yonida) Kolumb uchun ikki nafar kema va ekipaj a'zolari va barcha zaruriy jixozlar bilan tayyorlanishiga buyruq berildi. Kelishuv shartlariga asosan uchinchi kemani Kolumbning o'zi jihozlamoq'i lozim edi. Bu ishni bajarish uchun unga Palosli mohir dengizchilar bo'lmish aka-uka – Alonso va Vinsent Piksonlar yaqindan ko'maklashdilar. 1492 yilning avgust oyi boshlariga hamma narsa tayyor bo'ldi va uch nafar kema “Santa Mariya” (100-130 t.). “Pinta” (50-90 t.) va “Ninya” (“Bolakay” 40-60 t.) – Palos ko'rfazida elkanlari shay bo'lib turardi. “Santa Mariya” kapitani Kolumbning o'zi, “Pinta” va “Ninya”lardagi komandalarni esa aka-uka – Alonso va Vinsent Piksonlar boshqaradilar. Uchala kemaning ekspeditsiya a'zolari 90 kishidan iborat edi.

2.3. Xristofor Kolumb sayohatlarining geografik jihatlari

Kolumbning birinchi sayohati

1492 yilning 3 avgust kuni Kolumb ekspeditsiyasi Palosdan Atlantika okeaniga suzib ketdi. Kolumb avvaliga Janubiy-G'arb tarafga, Kanor orollari tomonga yura boshladi, bu orollarga yetib borgach esa to'g'ri g'arb tarafga yo'l olishni niyat qilgandi. Ko'p vaqt o'tmay "Pinta"ning ichiga suv sizib o'tayotgani ma'lum bo'ldi. Ta'mirlash ishlari qarib bir oyga cho'zilib ketdi va nihoyat 1492 yilning 6 sentyabr kuni kemalar gomer orolining gavanidan (dengiz bo'yicha kemalar turadigan joy) ochiq okeanga qarab chiqdilar. 9 sentyabr kuni Kolumb Kanor orollarining eng g'arbiy tarafiga joylashgan Ferro orolini tark etdi, aynan shu yerdan okeanning noma'lum qismi boshlanar edi.

Suzishning dastlabki qismida kemalar shtilga (shamolsiz payt) uchradilar, kemalar juda sekinlik bilan olg'a yurardi. Undan so'ng yo'lovchi shamol kemalarni katta tezlik bilan G'arb tarafga hayday boshladi. Ekspeditsiya a'zolarining ko'pchiligi ko'p vaqt o'tmay hayajonlana boshladilar: ularning katta qismi o'limga ketyapmiz deb uylariga qaytmasliklariga ishonardilar. Kolumb kemandi okean ichiga yerdan olislashgani sari komanda ichida hayajonlar kuchayaverishini oldindan ko'ra bilib ikki nafar kema jurnalini (kemada kunda sodir bo'ladigan voqealar, navigatstion hisoblar va koordinatalar yozib turadigan kundalik kitob): undan biri o'zi uchun, ikkinchisi esa komanda uchun; bu jurnalda har safar o'tilgan masofani qisqartirib ko'rsatar edi. Odamlarni vahima bosmasligi uchun. Ammo ochiq okeanda uchrab borgan ko'pdan ko'p hodisa va voqealar komandani doimiy tashvishlantirib besaramjonlikda ushlab turar edi. Turg'un passat shamollari tufayli kemalarni orqaga qayta olmasligi oldida qo'rquv uyg'otar edi.

Kolumbning birinchi sayohatida kompasning og'ish burchagi aniqlangani bo'lib, bunda kompasning magnit strelkasi bilan geografik meridian orasidagi burchagining o'zgarishi odamlar uchun dahshatli bo'lib ko'rindi. U paytlarda kompasning strelkasi geografik shimoliy qutbni emas, balki magnit qutbni

ko'rsatishni magnit og'ish burchagi har xil joylar uchun alohida ko'rsatkichlarga ega ekanligini hech kim bilmas edi.

G'arb tarafga tobora uzoqlashib, 16 sentyabr kuni kemalar komandasi ajabtovur hodisaning guvohlariga aylandilar, okean usti zangori o'tlar bilan qoplangan edi, uning qalinligi kemalarning olg'a yurgani sari ortib borardi va nihoyat u shunchalik ko'payib ketdiki, dengiz o'tloqqa o'xshab qoldi, kemalarnin yurishi esa anchayin sekinlashdi. Bu hodisa komandani yana bir bor katta qo'rquvga soldi. Aynan shu tariqa suzib yuruvchi suv o'tlari bilan qoplangan "Sargasso dengizi" kashf etildi, bu dengiz okeanning subtropik mintaqasida joylashgan bo'lib, dengiz oqimlar hosil qilgan xalqa ichida edi. Okeaning tubi bu yerda ham boshqa joylardagi kabi chuqur edi.

Kolumb G'arbiy yo'nalish bo'yicha taxminan 68^o gacha suzib bordi. 7oktyabr kuni kema yo'nalishini shimoliy-g'arbgga tomon o'zgartirdi. Oradan to'rt kun o'tar o'tmas gorizontda yer ko'rindi. Bu odam yashamaydiga orol bo'lib, uni hindular Guanaxan deb atashardi, u Florida yarim orolidan Janubiy Sharqda joylashgan Bagam orollari guruhining biri edi. Kolumb unga San-Salvador (Qutqaruvchi) deb nom berdi. Hozirgi kunda bu Uetling oroli bo'lsa kerak. Kolumb bu orolga tantanavorlik bilan Ispan bayrog'ini tik ko'targancha qadam bosdi. Mahalliy aholi vakillari kelgindilarga "bu yerlik odamlar o'ta yuqori baho bergan quruq barglarni"(tamaki) hadya qilishdi. Mahalliy aholi taqib olgan oltin bezaklarga darxol e'tibor qilib qiziqqan Yevropaliklarga mahalliy aholi oldin Janubdagi qaysidir joylardan olib kelinishini aytishdi. Vaqtni boy bermay Kolumb zudlik bilan Janub tarafga yo'l olib oltin bor joyni izlab ketdi. Janub tarafga suzayotib u bir necha Bagamolarga tegishli yangi orollarni, 28 oktyabr kuni esa Kuba oroldagi yaqinlashib ekspeditsiya a'zolari (Yaponiya) deb e'lon qildi. Orol bilan tanishib, mahalliy aholidan Kubaning kattaligini aniqlab olgach Kolumb uni Sharqiy Osiyoning eng befayz qismida joylashgan yarim orol deb qabul qildi. Bu joyda u na podshohlarni, na oltinni va na ziravorlarni topa olmadi.

Aholi yashaydigan kulbalarda ispanlar paxtani ko'rib qolishdi, ularning atrofida esa Yevropaliklarga noma'lum bo'lgan madaniy o'simliklar: mans (makka),

kartoshka, tamaki ekilgan va parvarish qilinayotgan dalalarni ko'rishdi. Shunda Kolumb Kuba aslo Yaponiya emasligini tushinib yetdi.

Mahalliy aholi oltin haqidagi savollar berilganida ular janubni ko'rsataverganlaridan so'ng Kolumb Kuba qirg'oqlari bo'ylab Janubiy-Sharq tarafga suzishni ahd qildi. Kubadan o'tib u tez orada yangi orolni ochdi. Chiroyli tog'lar joylashgan o'lka, go'zal va ajoyib o'simliklar dunyosi Kolumbni lol qoldirdi va u ochgan orolni Ispaniya sharafiga unga Espanola (hozirgi Gaiti) deb nom qo'ydi. Bu yerda ispanlar boshqa orollarga nisbatan ko'proq oltin topdilar.

Ekspeditsiya a'zolarining bir qismini Espanolada qoldirib, Kolumbning o'zi 1493 yili 16 yanvar kuni orqaga Ispaniyaga yo'l oldi. Avvaliga Shimoliy-Sharqqa, so'ngra esa to'g'ri Sharqqa qarab yurgandan so'ng 34 kun deganda Azor orollariga yetib bordi. 15-mart kuni esa Ispaniyaga keldi.

Kolumb Ispaniyaga birinchi bo'lib G'arbga yangi yerlar ochilganligi haqidagi xush xabarni olib keldi. Dengiz ortidan keltirilgan hindular deb nom bergan odamlarni hamda oltinni, ajabtovur o'simliklar va mevalarni, misli ko'rilmagan qushlarning patlarini va boshqa ajoyibotlarni ko'rganlarining barchasi ajabtovur boyliklar mamlakatiga eng yaqin yo'l topganligiga ishonch hosil qildilar.


Kolumbning qaytib kelishi va uning yangi yerlarni topganligi haqidagi xabarlar avval Ispaniyada, so'ng esa butun Yevropada kuchli taassurot keltirib chiqardi. Kolumb yangi dengiz yo'lini ochib berganligi va yangi ochilgan yerlardan qaytib kelish mumkinligini isbot qildi.

Kolumbning ikkinchi sayohati

Kolumbning "Sharqiy Osiyo"ga G'arb yo'llarini topganligi haqida birinchi xabarlar Portugaliyaning hukmdorlarini qattiq tashvishga qo'ydi. Axir ushbu ochish sababidan qo'llaridan Hindiston chiqib ketishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi. Portugaliya bilan Ispaniya orasida o'tkir mojarolar vujudga kela boshladi.

Yangi ochilgan yerlar ustidan tortishishlarga barham berish uchun Rim papasi Aleksandr VI, 1493 yilning 4 may kuni (yorliqnoma) farmon e'lon qildi, unga

asosan Azor orollari yoki Yashil Burun orollaridan narida joylashgan meridianning g'arbiy tarafida topilgan barcha qit'alar, orollar va mintaqalar Kastiliya qirolligiga tegishli ekanligi, 46^0 meridiandan sharqda bo'lgan yerlar esa Portugaliyaga tegishli ekanligi ta'kidlangan edi.



- «ПИНТА», «НИНЬЯ» ва «САНТА-МАРИЯ» – кемалари. Христофор Колумб ўз саёҳатларини шу кемаларда амалга оширган

4-rasm. X.Kolumb o'z sayohatlarini shu kemalarda amalga oshirgan.

Bu belgilangan chegarada geografik nojo'yalik yashiringan edi, chunki bu kabi meridianni ko'rsatish iloji yo'q. O'sha paytlardayoq Azor orollari Yashil Burun orollaridan ancha g'arbda joylashganliklari hammaga ayon edi.

Papaning yorliqnomasi butun Yer kurrasining g'arbiy uzunlikning 38^0 bo'ylab ikki dunyoga ajratib qo'ydi. Biroz vaqt o'tib 1494 yilning 7 iyul kuni Tordk shahrida Portugaliya va Ispaniya orasidagi bitilgan kelishuvga asosan bu chiziq biroz g'arbroqqa g'arbiy uzunlikning $46^0 - 30^1$ ga siljitildi. Okean ortidagi yangi ochilgan yerlarni o'zlariniki deb e'lon qilish uchun Ferdin bilan Izabella zudlik bilan Kolumb boshchiligidagi yangi ekspeditsiya tuzishga kirishdilar. 1493 yilning 25 sentyabr

kuni o'n yetti kemadan iborat bo'lgan flot Kodiq portidan (Gavanidan) chiqib ketdi. Kolumb o'z bilan birga vatanidan uzoqroqda o'z baxtini topishga intilgan 2000 ga yaqin odam, ko'plab har xil uy jonivorlarini, uzum navdvlari va Yevropada o'stiriluvchi ko'plab o'simliklarning urug'ini olib ketdi. Bu safar Kolumb yo'lni Kanor orollaridan sal Janubroqqa yo'naltirdi. U oltini ko'p bo'lgan "eri yo'q xotinlar orolini" topishni mo'ljallardi. Bu yerlar va orollar haqidagi xabarlarini u Espanoladagi aholidan bilib olgan edi. 1493 yilning 3 noyabri kuni Kolumb yerni ko'rib qolib uni Dominika ispancha yakshanba kun deb atadi. Bu yerda ekspeditsiya shimolga va shimoliy-g'arbga yo'l olib (Kichik Antil orollarini ochdi). Mariya Goalant, Gvadelupa, Montserrat, Nevis, Atigua, San-Kristofer, Santa Krus va Virgin orollaridan tuzilgan kichik Antil orollar guruhini kashf etdi. Virginiya arxipelagidan g'arbroqda, hozirgi kunda Puerto-Riko (boy ko'rfaz) deb nomlangan orolni ochdi. So'ngra Kolumb Espanola oroliga yo'l olib, u yerda qoldirilgan barcha kolonistlar mahalliy aholi bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'lgandilar. Avvaliga qishloq qurishga Kolumb Izabella deb nom berilgan yangi shaharni barpo etdi.

Undan so'ng, 1494 yili Kolumb Kuba orolning Janubiy-Sharqidan G'arbga qarab suza boshladi. U Kubadagi Serro-Maestro tog'lari yaqinda Janubga burilib Karib dengizidagi Yamayka orolini ochdi. Bu yerdan u yana Kubaga uning Janubiy qirg'oqlarini o'rganishni tugatish uchun qaytib bordi.

Natijada Kolumb yana bir bor Kuba oroli emas, balki Osiyo qit'asining bir qismi degan yanglish xulosaga keldi. Undan so'ng u Ispanola orolning Janubi-G'arbiy qirg'oqlarining okeanga bo'rtib chiqqan joyiga yaqinlashib, 40 kun orolning ispanlar hali tashrif etmagan janubiy tarafini o'rganib chiqdi va yurtiga qaytib bordi.

Bu vaqt orasida Ispaniyada Kolumbning dushmanlari va ichi qora odamlar qirolga, Kolumb barcha yangi yerlarni bosib olmoqchi ekanligini va u yerda mustaqil qirol bo'lishga intilayotganligi haqida bo'htonlarni yetkazdilar. Ispaniya qirolining oldiga Kolumb tarafidan yuborilgan zobitlar, uning qattiqqo'llik va adolatsizlikda aybladilar. Xunuk xabarlar ta'siri ostida qolgan Ferdinand amalga oshirayotgan ishlarni taftish qilish uchun Ispanolaga o'zining komissarini yubordi. Kolumbga nisbatan noto'g'ri fikrga ega bo'lgan komissar Ispanolaga qarab jo'nab

ketdi. Ochiqdan-ochiq adovat bilan to'qnashgan Kolomb tezkorlik bilan Ispaniyaga, o'zining haq-huquqini paymol etishdan shaxsan himoya qilish uchun jo'nab ketdi. O'zi bilan Kolomb uning talabi bilan tuzilgan hujjatlarni olib kelib, u yerda Kolomb tarafidan ochilgan va qayd etilgan barcha yangi yerlar Osiyo qit'asiga (u Kuba orolini shunday deb o'ylagan) qarashli ekanligi qayd etilgan edi. Undan tashqari Kolomb Espanola Sulaymon payg'ambar o'z ravnaqini bezash uchun oltin qazib chiqib olib ketgan orolning markazida aynan o'sha afsonaviy Ofir mamlakatini aniqlab topganligi haqida ham xabar berdi. Bu xabarning barchasi qirol va qirolichaning hamjixatlik (hamdartlik) bilish uning aytib berayotgan voqealarini tinglab o'tirganliklarini ko'rgan Kolomb ularga yana ekspeditsiyani tashkil qilishni taklif etdi. Bu ekspeditsiyada u yangi, yana ham kengroq va kattaroq ochishlarini qilishni va Kuba orolini Osiyo qit'asining bir qismi deb o'ylab uni Ispaniyaga boy va go'zal qit'ani biriktirishga va'da berdi.

Kolumbning uchinchi sayohati

Olti kemadan iborat bo'lgan uchinchi ekspeditsiyani Kolomb katta qiyinchiliklar evaziga tayyorladi. Mablag' yo'qligi hamda "omadi qochgan" admiral bilan G'arbiy Hindiston kamdan kam odam borishga ko'nar edi. Ko'pchilik Kolomb borib etgan mamlakatlarga shubxasiz nazar bilan qarar edilar. Ispaniyada orzu qilgan boyliklar u yerda yo'q edi.

1498 yil 30 may kuni Kolomb o'zining uchinchi sayoxatiga San-Lukar portidan chiqib ketdi. U Kanor orollariga yetib kelib, u yerdan 3 nafar Espanolaga yubordi, o'zi esa qolgan kemalar bilan Yashil Burun orollari tomon yo'l olib, maqsadiga muvofiq ekvator atrofida aynan o'sha oltin va ziravorlar yetkazib beruvchi odamlarni topish niyatida yana ham janubroq yo'ldan yura boshladi.

Yashil Burun orollaridan Kolomb janubiy-g'arbga burilib ekvator tomon yura boshladi va iyulning o'rtalariga kelib shimoliy kenglikning 5⁰ ga yetib bordi. Yo'lovchi shamollar esa boshlanishi bilanoq, Kolomb G'arb tomonga suzishga jazm etdi. Birinchi avgust kuni u uch nafar tog' cho'qqisi bor orolga yetib bordi. Kolomb unga Trinidad ("Trosta") deb nom berdi. Bu orol palma o'rmonzorlari bilan qoplangan, ularning soyalari tiniq suvli buloqlar urib turar. Orolida odamlar yashardi.

Ispaniyaliklarning kemalari yonida mahalliy aholi o'tirgan katta qayiq suzib keldi, ularning tanalari Espanola odamlardan ranglari ancha ochiq edi.

Suv zahiralari to'ldirib, Kolumb G'arb tarafga yurishni davom ettirdi va Janubiy Amerika qit'asining bir qismi bo'lgan hamda shu qit'alarning eng katta daryolaridan bo'lmish Orinoko o'zani quyiladigan ko'rfazga yetib bordi. Bu Paril ko'rfazi edi. Orinoko deltasi atrofidagi Janubiy Amerika qit'asini Kolumb oroli deb qabul qilib uni "Grastiya("Farog'at")yeri" deb nomladi. Kolumb ko'rfazni kesib o'tib Paril yarim orolini ochdi. Bu yarim orol shu nom bilan atalgan ko'rfazni dengizdan ajratib turar edi. Yarim orolda odamlar yashaydilar. Uni o'rganish uchun ko'p vaqt sarflamay, Kolumb Espanolaga yo'l oldi. Yo'l-yo'lakay u Karib dengizidagi yana bir necha orollarini ochib, ulaning eng yirigiga "Margarita oroli" "Javohir". Bu yerda ispanlar birinchi bor ko'plab javohirlarni uchratdilar.

Espanolada Kolumb yangi saylangan qirol Noibi tomonidan hisobga olinib, zanjirband holda Ispaniyaga yubordi. Ispaniyada ko'p o'tmay Kolumb ozod etilib xattoki qirol ko'plab "marhamatlik" va'da qilingan maktub oldi. Tinmay yog'ilyotgan bo'htonlar, qirollarning ochilgan yerlardagi boyliklardan ko'ngillarning sovishi o'zining ishini qildi. Espanoladan olgan daromadlar u yerga yuborilayotgan kemalar va jihozlarning qimmatini qoplayotgan edi. Buning natijasida Kolumb yo Espanoladagi boyliklarni bo'rtirib ko'rsatayotganligi, yoki topilgan boyliklarni o'z foydasiga yashirib, va nihoyat buyurilgan vazifani baraja olayotgani haqida gumonlar paydo bo'ldi.

Kolumbga bo'lgan ishonchsizlik portugaliyaliklar Vasko da Gama Afrikani Janubini aylanib o'tib Hindistonga yo'l ochgani va u yerdan qimmatbaho toshlar, metallar kabi nihoyatda boy yuklar bilan qaytganidan so'ng yana ham kuchaydi.

Ushbu mavzuni o'rganishimga turtki bo'lgan sabablardan biri geografiya fani tarixiga ulkan hissa qo'shgan sayoh-geograflarlar haqida umumta'lim geografiya darsliklarida juda kam ma'lumot berilganligidir. Jumladan, Amudsen haqida 6-sinfda o'qitiladigan geografiya darsligida (A.Soatov, A.Abdulqosimov, M.Mirakalov. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti. 2017 y.) quyidagi mavzularda tilga olingan:

13-mavzuda (Dunyo okeanining o'rganilish tarixi.) Buyuk geografik kashfiyotlar davri (XV asrning ikkinchi yarmi-XVII asrning birinchi yarmi)dan boshlanadi. Bu davrda X.Kolumb, J.Kabot, Vasko da Gama, A.Vespuchchi, F.Magellan, F.Dreyk, V.Yanstzon, A.Tasman va boshqalar Dunyo okeanida suzishib, muhim kashfiyotlar qilishgan.

27-mavzuda (“Atlantika okeani” mavzusida): “Shuningdek, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida V.Diash, X.Kolumb, J.Kabot, Vasko da Gama, F.Magellan, O.Kuk va boshqalar haqida ko'plab ma'lumotlar berdi.

38-mavzuda (“J.Amerika. Geografik o'rni, o'rganish tarixi, geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. Relyefi.” mavzusida): O'rganilish tarixi. Amerikaning kashf etilishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. X.Kolumbgacha, ya'ni XV asrdan oldin Amerikaga xitoylar, yaponlar, finikiyaliklar, arablar, inglizlar, skandinaviyaliklar, okeaniyaliklar borganligi haqida dalillar topilmoqda. Vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy o'zining “Hindiston” asarida Amerika quruqligining mavjudligini X.Kolumb kashfiyotidan 450 yil oldin bashorat qilgan.

X.Kolumb “Yer shar shaklida” degan g'oyaga asoslanib, Hindistonga yaqin dengiz yo'li bilan borish uchun safarga chiqadi. U 1492- yilning 12-oktyabr kuni San-Salvador (Ispancha xaloskor degani) oroliga keladi. Bu sana Amerika kashf etilgan kun tariqasida geografiya tarixiga kiritilgan. Buyuk geografik kashfiyotlar davrini boshlab bergan X.Kolumb o'zining to'rt marotaba Amerikaga qilgan safarlari chog'ida ham o'zi borgan yerlarini Hindiston deb o'ylagan.

Amerikani kashf etgan sayyoh sifatida baribir X.Kolumb tan olinsa-da, Shimoliy Amerikaga birinchi bo'lib borgan evropalik hisoblanmaydi. Chunki undan bir necha yuz yil muqaddam Grenlandiyada etib borishgan. Ammo faqat X.Kolumbning sayyohatigina jahon tarixida olamshumul burilish yasaganini ta'kidlash joiz.



5-rasm. Madeyrada X.Kolumb haykali

Zamondoshlarining yozishicha, X.Kolumb o'rta bo'yli, baquvvat va hamsuhbatlarini o'z fikriga ishonтира olish iqtidoriga ega dono kishi bo'lgan ekan. Sayyohning geografik kashfiyotlar tarixida qoldirgan merosiga ehtirom ramzi sifatida dunyodagi ko'pgina tabiiy va ijtimoiy ob'ektlarga uning nomi berilgan. Jumladan, Janubiy Amerikadagi davlat, Kanadadagi provinstiya, AQShdagi federal okrug va daryo, Shri-Lanka poytaxti, shuningdek, turli mamlakatlardagi ko'plab daryo, tog' tizmalari, ko'llar, sharsharalar, shaharlar, parklar va ko'priklar uning nomi bilan ataladi. Shimoliy va Janubiy Amerikadagi ko'plab shaharlarda sayyohning haykallari mavjud. Shuningdek, Ispaniyaning Barselona shahridagi markaziy xiyobonlaridan biriga, Germaniyaning Bremerxaven shahrida buyuk dengizchi-sayyohning haykallari o'rnatilgan.

Xulosa

Jahongashtalik, sayohatga tashnalik, turli manzillar og'ushiga talpinish azal-azaldan insoniyat qon-qoniga singib ketgan. Ibtidoiy davrda ham qabilalar mo'l rizq-ro'z ilinjida zamin bo'ylab ko'chib yurgan. Asrlar mobaynida odamlaru millatlar va elatlarning yalpi yurishi, ko'chishi va yangi o'lkalarga joylashishi davri o'troq turmush tarzi salmog'idan qolishmaydi. Rim imperiyasi yuzaga kelayotgan davrda xun qabilalari xalqlarning Buyuk ko'chishini boshlab berdi. Shuning asnosida son-sanoqsiz qabilayu elatlarni, xususan, gotlarni ham azaliy manzillaridan ko'chishga majbur qildilar, aholining beqiyos ko'chishi to'lqini butun Yevropani qoplab oldi. Yangi davrning Buyuk geografik kashfiyotlari ham shu jumlagi kiradi. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab emas, nisbatan qulay dengiz yo'li orqali Hindiston va Xitoyga borishni maqsad qilgan Xristofor Kolumb ekspeditsiyasi yaxlit Amerika qit'asini kashf qildi. X.Kolumb Amerikaga 4 marta sayohat qildi. X.Kolumb yuksak g'oyaga safarbarlik va maqsadga sadoqat, teran amaliy tafakkur va benazir tashkilotchilik qobiliyati, sobit qat'iyat va metin iroda, mardlik va sabr-toqat singari iste'dodli sayohatchiga xos fazilatlar sohibi bo'lgani shubhasiz. Xristofor Kolumb va uning zamondoshlarini afsonaviy Sharq boyliklari – oltin, nozu ne'matlar, duru javohirlar safarga chorlagan.

Xristofor Kolumb Karib dengizidagi ko'plab orollarni kashf qildi. Lekin omad unga kulib boqmas, u o'zi izlagan Hindistonning oltin boyliklarini topa olmadi, Yangi qit'a kashf qilinganini Kolumb umrining oxiriga qadar bilmagan. O'zi kashf qilgan joylarni Hindiston, u yerlar aholisini "hindular" ("indeyeslar") deb atadi. Shu sababdan Amerikaning ko'plab tillarda gaplashadigan, turli nomdagi xalqlari va qabilalarini adabiyotlarda "indeyeslar" deb atash rasm bo'lib ketdi.

Xristofor Kolumbning nomi Kolumbiya davlatiga, Amerika Qo'shma Shtatlari okruglaridan biriga, ko'plab shaharlarga, Universitetga, tog', daryo va hatto fazoni tadqiq etish loyihalaridan biriga qo'yilgan.

Mutaxassislarning fikricha, jasur sayyoh Kolumb 55 yillik umrining to'rtinchi uch qismini dengiz sayohatlarida o'tkazgan.

- Umumiy xulosa shundan iboratki X.Kolumbning muhim kashfiyoti fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan sayoh-olim sifatida fan tarixida qoldi.
- 6-sinf geografiya darsligida nafaqat X.Kolumb, balki boshqa sayohatchilarning tadqiqotlari to'g'risida alohida mavzu kiritilib, Yer yuzasining o'rganilish tarixi kengroq yoritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;
- Umumta'lim geografiya darsliklari uchraydigan sayoh-olimlarning hayoti va ijodiy faoliyati to'g'risida o'qituvchi kitobi nashr qilinsa maqsadga muvofiq bo'lardi.
- O'rta maktab adabiyotlarida Xristofor Kolumb to'g'risida ma'lumotlar kengroq yoritilsa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Prezident asarlari va ma'ruzalari

1. Мирзиёев Ш.М. Тараққиётимизнинг янги босқичи бўлган 2017 йилда амалга оширилган асосий ишлар якуни ва Ўзбекистон Республикасини 2018 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг устувор йўналишларига бағишланган Мурожаатнома, 2017 йил 25 декабрь – Тошкент, Ўзбекистон, 2017.32-б.
2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик –ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий ялунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисдаги маъруза, 2017 йил 14-январь-Тошкент, Ўзбекистон, 2017.104-б.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланаган тантанали маросимдаги маъруза.2016 йил 7 декабрь-Тошкент, Ўзбекистон, 2017 йил 14-январь-Тошкент, Ўзбекистон, 2017.48б.
4. Mirziyoev Sh.M. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. Toshkent shahri, 2017 yil 20 aprel.

Boshqa manbalar

1. Васюнина Л.И. Христофор Колумб ва унинг кашфиётлари.-Т.: 1954.-15б.
2. Vahobov H. Umumiy Yer bilimi. Darslik. –Т.: Bilim, 2005.
3. Gulyayev V. I. Po sledam konkistadorov. M., 1976.
4. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Geografiya tarixi. - Buxoro, 2015. – 185 b.
5. Калесник С.В. Умумий Ер билими қисқа курси. -Т.: 1966. -300 б.

6. Karomiddin Gadoyev., Sabohat Berdiyeva. Jahongashta sayyoh-olimlar. Toshkent. "O'zbekiston", 2012.-270 b.
7. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. -М.: Высшая школа, 1990.
8. Magidovich I. P., Magidovich V. I. Ocherki po istorii geograficheskix otkro'tiy. -М., 1983.
9. Nazarov I. Q. Geografiya fanining asosiy muammolari.– Т.,2013.-212 b.
10. Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik. -Т.; 1996, b.130
11. Шубаев П.П. Умумий ер билими -Т.: 1975.
12. Hasanov H. O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar. -Т.; 1964.

Elektron manbalar

1. Elektronnaya biblioteka IGU – mba@library.isu.ru
2. Электронные справочники по России, миру
3. <http://bse.sci-lib.com> - Bolshaya sovetskaya ensiklopediya
4. <http://www.maikonline.com/> - elektronnaya versiya jurnala «Vestnik Rossiyskoy Akademii Nauk

ILOVALAR



6-rasm.Kolorado shtatidagi X.Kolumb haykali




Христофор Колумб

1451 йили 25 августда
Генуя (Италия)да
туғилган, 1506 йили 20
майда Вальядолид
шаҳрида (Испания)
вафот этган. Америка
қитъасини кашф этган
сайёҳ сифатида эътироф
этилади.

ХРИСТОФОР КОЛУМБ,
(номаълум муаллиф асари, 16 аср)

7-rasm.X.Kolumb hayotidan lavha

Буюк географик кашфиётлар харитаси



8-rasm.Buyuk geografik kashfiyotlar tarixi xaritasi



9-rasm.X.Kolumb San-Salvador orolida

Христофор Колумб

Открыл Америку

1492 год



10-rasm. X.Kolumbning birinchi sayohati

